

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

RUSTAMOVA SHAHNOZA KOMILJONOVNA

**TEMURIYLAR VA BOBURIYLAR SULOLASIDA MALIKA
AYOLLARNING DAVLAT BOSHQARUV TIZIMIDA TUTGAN O`RNI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar: tarix fanlari nomzodi, dotsent
Isoqboyev Alisher Ahmadjonovich**

Namangan – 2019

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATIDA MALIKA AYOLLARNING DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O`RNI.....	6
1.1. Amir Temur va temuriylar davlatining shakllanishi, rivojlanishi va jahon tarixida tutgan o`rni.....	6
1.2. Amir Temur va temuriylar davlati siyosati va jamiyatida malika ayollarning o`rni.....	20
II BOB. BOBURIYLAR SALTANATIDA AYOLLARNING MAMLAKAT HAYOTIDA TUTGAN O`RNI VA ROLI.....	36
2.1. Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan Hindistonda markazlashgan davlatga asos solinishi, boburiylar davlatining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti.....	36
2.2. Boburiylar saltanatida malika ayollarning davlat boshqaruvi va madaniy hayoti tutgan o`rni.....	45
XULOSA.....	66
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	68

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Sohibqiron Amir Temur va temuriylar sulolasi nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon tarixida ham muhim o`rin tutgan. Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish borasidagi faoliyati natijasida Movarounnahr va unga tutash bo`lgan hududlarda qariyb bir yuz ellik yil davom etgan mo`g`ullar istibdodiga barham berildi. Movarounnahr va Xurosonda fan, madaniyat va san`at sohasida yangi uyg`onish davri boshlandi.

Mustaqillik yillarida Amir Temur va temuriylar davri tarixi yangidan, xolisona, tarixiy haqiqat qaror topgan holda yozildi. Bu borada ko`plab ilmiy va badiiy asarlar dunyo yuzini ko`rdi. O`zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov Amir Temur va temuriylar davri tarixini tiklash borasida juda ham ko`p ibratli ishlarni amalga oshirdilar. Shu bilan birga Amir Temur va temuriylar madaniyatiga juda ko`p maroba yuksak baho bergan edilar. “Shu o`rinda buyuk bobomizning ma`naviy olami xususida fikr yuritganda, Sohibqiron Amir Temur haqida alohida to`xtalishimiz tabiiydir. Chunki, tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo`lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o`zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmy fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma`naviyat rivojiga keng yo`l ochdi”, - deya, e`tirof etgan edilar¹.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Amir Temur va uning sulolasi qoldirgan boy madaniy meros, shuningdek Amir Temurning davlat boshqaruvida adolat tamoyiliga alohida urg`u berganligini ta`kidlab, “Buyuk sohibqiron Amir Temur bobomiz Oqsaroy peshtoqiga “Adolat – davlatning asosi va hukmdorlar shioridir”, degan hikmatli so`zlarni yozdirgani bejiz emas, albatta. Ushbu ulug`vor g`oya inson qadr-qimmatini oliy darajaga ko`tarish borasidagi amaliy harakatlarimiz poydevoriga aylandi”, - degan edilar².

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Маънавият, 2016. – Б. 45.

² Мирзиёев Ш.М. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тadbirkor халқ – фаровон ҳаётнинг дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза // Халқ сўзи. 2018 йил 8 декабрь

Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixi, hukmdorlari, siyosati, madaniyati xususida juda ham tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lekin, Amir Temur va temuriylar davlati tarixida siyosat, iqtisodiyot (bunyodkorlik) va madaniyat sohasida malika ayollarning tutgan o`rni xususida alohida tadqiqot ishlari amalga oshirilgan emas.

Mazkur bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi, temuriylar va boburiylar hukmronligi davrida mamlakat hayotida muhim o`rin tutgan ayollarning tarixini jamlash, tartiblash va ularni yaxlit holda jamoatchilikka etkazish bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi. Mazkur malakaviy ishining davriy chegarasi sifati Amir Temur, temuriy va boburiylar hukmronlik qilgan va jahon tarixida muhim iz qoldirgan davr XIV-XVIII asrlar belgilandi. Aynan shu asrlarda temuriy va boburiy hukmdorlar saroylarida siyosat va madaniyat borasida o`z o`rni va so`ziga ega bo`lgan malika ayollar faoliyat ko`rsatganlar.

**Bitiruv malakaviy ishining o`rganilganlik darajasi.** Bitiruv malakaviy ishi yuzasidan adabiyotlarni tahlil qilish jarayoni shuni ko`rsatadiki, aksariyat adabiyotlar mustaqillik yillarida yaratilgan bo`lib, unda tarixiy asarlar tahlili asosida temuriy va boburiy malikalarning davlat tarixida tutgan o`rniga alohida o`rin ajratilgan. Jumladan, Amir Temur shaxsi tomonidan yozilgan deb hisoblanadigan “Zafar yo`li” asari, shuningdek, Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan nashr etilgan “Amir Temur jahon tarixida” nomli to`plam, “Amir Temur va uning jahon tarixida tutgan o`rni” mavzusidagi xalqaro konferentsiya tezislarini, N. Norqulovning “Temuriylar davri madaniyati tarixidan lavhalar”, N. Foyibovning “Amir Temur davri ma`naviyati”, akademik B. Ahmedovning “Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati)”, A. Qayumovning “Amir Temur qissalari” asarlarida malika ayollarning faoliyatiga to`xtalib o`tilgan³.

³ Amir Temur Kўрагон. Зафар йўли / Нашрга тайёрловчи, таржимон ва изоҳлар муаллифи Ашраф Аҳмад. - Т.: Шоёб, 1992.; Amir Temur jahon tarixida. - Т.: Шарк, 1996.; “Amir Temur va uning jahon tarixida tutgan o`rni” mavzusidagi xalqaro konferentsiya tezislarini. - Т.: Ўзбекистон, 1996.; Норкулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. - Урганч: Хоразм нашриёти, 1996.; Ғойибов Н. Amir Temur davri ma`naviyati. - Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.; Аҳмедов Б.

Bizning malakaviy ishimiz doirasida alohida ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqot T.Fayzievning “Temuriy malikalar” nomli asaridir⁴. Mazkur asarda Amir Temurning rafiqasi Saroy Mulk xonim (1341-1408), Xalil Sulton Mirzoning xotini Shod mulk Xotun (1387-1411), Sulton Xusayn Boyqaroning xotini Xadicha begim (1451-1511), Umar Shayx Mirzoning qizi Xonzoda begim (1477-1544), Zahiriddin Muhammad Boburning qizi Gulbadan begim (1523-1603), Jahongirshohning xotini (Nurjahon begim), Shoh Jahonning xotini Mumtoz Mahal (1594-1631), Avrangzeb Olamgirning qizi Zebunniso begim (1639-1702) kabi nufuzli malikalarning faoliyatiga doir qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi XIV-XVIII asrlarda temuriylar va boburiylar sulolasi hukmronlik qilgan davrda yashagan va mamlakat hayotida muhim o'rin tutgan malika ayollarning jamiyat hayotida tutgan o'rnini ochib berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmetini temuriylar va boburiylar hukmronligi davrida yashagan malika ayollarning mamlakat hayotida amalga oshirgan ishlari, ijodlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi mustaqillik yillarida yaratilgan ko'plab adabiyotlarning tahlili asosida bajarilgan bo'lib, undan mavzuga oid ma'lumotlar olish, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Соҳибкирон Темур (ҳаёти ва ижтимоий-сиёсий фаолияти). – Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1996.; Қаюмов А. Амир Темур қиссалари. – Т.: Ёзувчи, 1996.

⁴ Файзиев Т. Темурий маликалар. - Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1994.

I BOB. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATIDA MALIKA AYOLLARNING DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O`RNI

1.1. Amir Temur va temuriylar davlatining shakllanishi, rivojlanishi va jahon tarixida tutgan o`rni

Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo`lidagi harakati XIV asrning 60-yillari boshlaridan boshlandi. XIV asrning 50-yillari oxirida Movarounnahrda amirlarning o`zaro kurashi kuchayib, amir Qazag'on o`ldirildi. Mamlakatda siyosiy parokandalik avjiga chiqib, og'ir tanglik sodir bo'ldi. Xondamirning «Habib us-siyar» kitobida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, ulus o`nga yaqin mustaqil bekliklarga bo`linib ketgan. Samarqand viloyatida amir Bayon sulduz, Keshda amir Hoji barlos, Xo`jandda amir Boyazid jaloir, Balxda Uljoy Bug'a sulduz, Shibirg'onda Muhammad I Xoja Aperdi nayman, Ko`histonda Badaxshon shohi amir Sotilmish, Xuttalonda Kayxusrav, Hisoni Shodmon hududida amir Husayn va amir Xizr Yasovuriylar o`zlarini hokimi mutlaq deb e`lon qiladilar⁵.

Bu davrda Chig'atoy ulusining sharqiy qismi - Yettisuv va Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilayotgan mo'g'ul xonlari Movarounnahrdagi og'ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, bu yerda o'z hokimiyatini o`rnatishga harakat qiladilar. Jeta xonlaridan Tug'luq Temur va uning vorisi Ilyosxoja 1360-1361 va 1365- yillarda Movarounnahrga bir necha bor bostirib kiradilar. Mo'g'ul xonlarining bosqinchilik yurishlari va zulmiga qarshi xalq harakati boshlanadi. Biroq, Movarounnahr amirlari xalqqa bosh bo`lib, mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashga jur'at eta olmaydilar. Ularning bir qismi dushman tarafiga o`tadi, ikkinchi qismi esa el-yurtni tark etib, o`zga mamlakatlardan boshpana izlaydilar. Amir Temurning amakisi, Kesh viloyatining hukmdori amir Hoji barlos Xurosonga qochadi. Mana shunday og'ir pallada siyosat maydoniga Amir Temur kiradi. Mo'g'ullarga qarshi turish uchun kuchlar nisbati teng emasligini hisobga olgan 24 yoshli Amir Temur 1360- yilning boshida Tug'luq Temur tomonidan Keshga

⁵ Amir Temur jahon tarixida. – T.: Sharq, 1996. – B. 56.

yuborilgan beklar bilan kelishadi. Sharoit taqozosi bilan xon xizmatiga o'tib, uning yorlig'i bilan o'z viloyatining dorug'asi etib tayin qilinadi. Shubhasiz, bu noiloqliqdan qo'yilgan siyosiy hamda strategik qadam bo'lib, bu bilan Amir Temur mo'g'ullarning navbatdagi talon-tarojining oldini olgan, mamlakat va xalqni falokatdan qutqargan edi. Biroq, Movarounnahrning hukmdori etib tayin qilingan Ilyosxoja va uning lashkarboshisi amir Bekkichik bilan Amir Temurning murosasi kelishmay qoladi. Shu sababdan 1361- yilning oxirida u mamlakatni tark etishga majbur bo'ladi.

Xivaning janubida, Urganjiy dashtida Amir Temur Tug'luq Temurning yana bir raqibi - qaynog'asi amir Husayn bilan uchrashadi. Amir Temur mo'g'ullar bilan kurashish maqsadida u bilan birlashib, ikkovlon kuch to'plashga kirishadi. Dastlab ular Tug'luq Temurxonning farmoniga binoan Amir Temurni ta'qib qilishga kirishgan Xiva dorug'asi To'qol (Tavakkal) bilan jang qiladilar. So'ngra 1362- yilning kuzida Seistonda viloyat hukmdori Malik Qutbiddinning tarafida turib mekroniylar bilan bo'lgan to'qnashuvda Amir Temur o'ng kifti va o'ng oyog'idan jarohatlandi.

Amir Temur va amir Husayn keyingi ikki yil davomida Ilyosxoja boshliq Jeta lashkari bilan bir necha marta jang qiladilar. Nihoyat, 1364- yil oxirida ular mo'g'ul qo'shinlarini Movarounnahr hududidan quvib chiqarishga muvaffaq bo'ladilar⁶.

Biroq, Movarounnahrni qo'ldan chiqarishni istamagan Ilyosxoja 1365- yilning bahorida yana Turkiston ustiga qo'shin tortadi. Toshkent bilan Chinoz oralig'ida ikki o'rtada sodir bo'lgan jang tarixda «Loy jangi» nomi bilan shuhrat topadi. Jangda amir Husaynning xiyonati oqibatida mag'lubiyatga uchraydilar va o'z qo'shinlari bilan Amudaryo bo'ylariga chekinib, Balx viloyatida o'rnashdilar. Ilyosxoja esa hech qanday qarshilikka uchramay Xo'jand, Jizzax va boshqa bir qancha shahar hamda qishloqlarni egallab, Samarqand ustiga yuradi. Samarqand o'sha paytlarda katta qo'shinga qarshilik ko'rsata olmasdi. Shaharning na devori va

⁶ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/sarkarda/temur>

na mustahkam istehkomlari, na qurollangan sipohiysi bor edi. Bek va amirlar shaharni tark etgan edi, lekin mo'g'ullarga qarshi xalq ko'tarildi, sarbadorlar shahar mudofaasini o'z qo'llariga oldilar. Shahar mudofaachilariga madrasa tolibi ilmlaridan Mavlonozoda Samarqandiy, jun (paxta) tituvchilar mahallasining oqsoqoli Abu Bakr Kuluyi (Kalaviy) Naddof va mergan mavlono Xurdaki Buxoriylar boshchilik qiladilar. Sarbadorlar Samarqand shahrida mo'g'ullarga qaqshatqich zarba beradilar. Ilyosxoja dastlab Samarqandni, so'ngra butun Movarounnahrni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi.

Sarbadorlarning mo'g'ullar ustidan qozongan g'alabasi haqidagi xabar amir Husayn bilan Amir Temurga ham borib yetgan. Amir Temur qishni Qarshida, Husayn esa Amudaryo bo'yida o'tkazib, 1366- yil bahorida Samarqandga yo'l oldilar. Ular Konigilda to'xtab sarbadorlarning dushman ustidan qozongan g'alabalaridan mamnun bo'lganliklarini va ular bilan uchrashmoqchi ekanliklarini bildiradilar. Biroq, sarbadorlarning boshliqlari amirlar huzuriga kelganlarida amir Husayn buyrug'i bilan Abu Bakr Kuluyi (Kalaviy) Naddof bilan mavlono Xurdak Buxoriylar dorga tortiladi. Mavlonozodani esa Amir Temur o'z himoyasiga olib kutqarib qoladi. Shu tariqa sarbadorlar boshliqsiz qoldirilib, Movarounnahrda amir Husaynning hukmronligi o'rnatiladi, ammo ko'p vaqt o'tmay Husayn bilan Amir Temur o'rtasidagi munosabat keskinlashib, ochiqdan-ochiq nizoga aylanadi. Amir Temurning nufuzi ortib borayotganligidan xavfsiragan amir Husayn Balxga qaytib, uning qal'a devorlari va istehkomlarini mustahkamlashga kirishadi. Balx, Qunduz va Badaxshondan ko'p sonli lashkar ham to'playdi. Kesh va Qarshi viloyatlariga bosh bo'lgan Amir Temur ham amir Husaynga qarshi hal qiluvchi jangga hozirlik ko'radi. 1366-1370- yillar o'rtasida bir necha bor to'qnashuvlar bo'lib o'tadi⁷.

XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda hukm surgan nihoyatda og'ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirib, kuchli bir davlat tashkil etishni taqozo qilmoqda edi. Amir Husayndan ko'ra Amir Temur zamonining

⁷ Гойибов Н. Амир Темур даври маънавияти. – Т.: Ф.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 39.

bunday talabini yaxshiroq tushunardi. Shuning uchun ham o'z faoliyatining dastlabki bosqichida barcha harakatni Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzishga qaratadi. Bunday maqsadni amalga oshirishda u ruhoniylar, harbiylar, savdogarlar va shahar hunarmandlari tabaqalariga suyanadi. Amir Temur tarqoq mamlakatni birlashtirishga kirishar ekan, kurashni avvalo ichki g'animlaridan boshlaydi.

1370- yil bahorida Amir Temur amir Husaynga qarshi yo'lga chiqadi. Qo'shin Termiz yaqinidagi Biyo qishlog'iga yetganda makkalik shariflardan Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo'llab-quvvatlab, unga oliy hokimiyat ramzi katta nog'ora - tabl bilan yalov - bayroq tortiq qiladi. Shubhasiz bu voqea katta siyosiy ahamiyatga ega edi. Chunki u saltanatlik ramzi edi. Amir Temur buni yaxshi tushunardi. Shuning uchun ham Balxga yetmasdan O'rpuz mavzeida u amir va no'yonlari bilan kengash o'tkazadi. Ko'pchilikning xohish va ixtiyori bilan, o'sha davr qonun-qoidalariga ko'ra, chingiziylar avlodidan bo'lgan Suyurg'atmish o'g'lon Movarounnahr podsholigi taxtiga o'tqazildi. Amir Temur qo'shini to Balxga yetib borgunicha, unga yo'l-yo'lakay yangi-yangi kuchlar kelib qo'shildi. Shu asnoda amir Husaynni ko'pchilik amirlari tark etdilar. Jangda amir Husayn qo'shinlari yengildi, ikki kunlik qamaldan so'ng, 1370- yilning 10- aprelida Balx shahri Amir Temurga taslim bo'ldi. Amir Husayn asir olinib, qatl etildi. Bu g'alabadan so'ng Amir Temur Movarounnahrning chingiziylardan bo'lgan hukmdori Qozonxonning qizi Saroymulk xonimni o'z nikohiga oladi. Xon qiziga uylanganligi munosabati bilan Amir Temur «ko'ragon», ya'ni «xonning kuyovi» unvonini oldi⁸.

1370- yilning 11- aprelida Chig'atoy ulusining barcha beklari, amirlari, viloyat va tumanlarning dorug'alari hamda Termizning sayyidlari (xudovandzodalari), shuningdek Amir Temurning yoshlikdan birga bo'lgan quroldosh do'stlari va piri Sayyid Barakaning ishtirokida o'tkazilgan qurultoyda

⁸ Amir Temur K'ragon. Zaфар йўли / Нашрга тайёрловчи, таржимон ва изоҳлар муаллифи Ашраф Аҳмад. - Т.: Шоёб, 1992. – Б. 28.

an'anaga ko'ra chingiziylardan Suyurg'atmishxon mamlakat hukmdori deb e'lon qilingan bo'lsada, amalda markaziy hokimiyatni Amir Temur o'zi boshqardi, viloyatlardagi hokimiyatni o'g'illari, nabiralari va yaqin amirlari orqali idora qildi. Samarqand Amir Temur davlatining poytaxtiga aylantirilib, o'sha yilning yozida shahar devori va qal'asi tiklandi, saroy va qasrlar bino qilindi.

Mamlakatning siyosiy va iqtisodiy mavqeini mustahkamlab, ko'pdan davom etib kelayotgan ichki tarqoqlikka barham berish, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish maqsadida Amir Temur (1370 yil iyunida) Samarqandda katta qurultoy chaqirdi. Unda markaziy davlat tizimini shakllantirish va qo'shin tuzish masalalari muhokama etildi.

El-yurtni boshqarishda harbiy kuchning ahamiyatini yaxshi tushungan Amir Temur qo'shinning tuzilishiga katta ahamiyat berdi. U «amir» va «amir ul-umaro» kabi yuqori darajali harbiy unvonlar joriy qildi. Qo'shinni harbiy jihatdan isloh qilar ekan, u ayniqsa lashkarboshilarni tanlash va ularni tarbiyalash, harbiy qismlar va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda intizom masalalariga nihoyatda e'tibor beradi⁹.

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, dastlabki vaqtlardayoq mamlakatda ro'y bergan og'ir iqtisodiy tanglikni bartaraf qilish uchun eng avvalo soliq tizimini tartibga soldi. Davlat soliqlarini yig'ishda aminlar, kalontarlar va soliq yig'uvchilarni ra'iyatga nisbatan insof va adolatli bo'lishga, qonunga xilof ish tutmaslikka chaqirdi, chunki saltanatning barqarorligi ko'p jihatdan ra'iyatning hol-ahvoli, uning davlat va davlat boshlig'iga bo'lgan sadoqatiga bog'liq. Ra'iyatni himoya qilish qonun bilan mustahkamlangan, qonun barchaga barobar bo'lgan. Amir Temur nafaqat o'z xalqini, balki zabt etilgan mamlakatlarning aholisini ham imkoni boricha qonun himoyasiga olgan. Ularni asirlik va talon-tarojlardan saqlagan¹⁰.

⁹ Амир Темур жаҳон тарихида. – Т.: Шарк, 1996. – Б. 76.

¹⁰ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/sarkarda/temur>

Amir Temur Movarounnahrni mo'g'ullar hukmronligidan ozod etib, bu qadimiy mamlakatda mustaqil davlat barpo etgan bo'lsada, hali mamlakatda barqaror tinchlik o'rnatilgan emas edi. Bir tomondan ayrim viloyat hokimlari Amir Temur hakimiyatini tan olishdan bosh tortib turgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan mamlakatning sharqiy va shimoliy hududlari notinch edi. Mo'g'uliston bilan Oq O'rda hukmdorlari Farg'ona vodiysining sharqi, O'tror, Yassi (Turkiston) va Sayram shahrilariga xavf solib, bu hududlarga tez-tez hujum qilar va aholini talon-taroj qilardi. Shuning uchun ham Amir Temur dastlabki yillarda mamlakat sarhadlari xavfsizligini ta'minlashga katta ahamiyat berdi. Isyonchi amirlarga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi¹¹.

1370- yil kuzi va 1371- yil bahorida amir Zinda Chashmga zarba berib, Shibirg'on viloyati bo'ysundirildi. Balx va Toshkent viloyatlari ham Amir Temur hokimiyatini tan oldilar. Ammo Xorazm Oq O'rda hukmdorlariga suyanib, hanuz bo'ysunishdan bosh tortib kelardi. Xorazmni Amir Temur Chig'atoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblab, uni o'z davlatiga qo'shib olish siyosatini tutdi. Ammo bu masala elchilar vositasida tinch yo'l bilan hal etilmagach, Amir Temur Xorazm hududiga besh marotaba yurish qildi. Birinchi yurishi 1371- yil yoz (iyul)ida Kot shahrini egallash bilan yakunlandi. Amir Temurning 1373- yil bahori va 1375- yil yozida Xorazm tomonga qilgan ikki yurishi natijasiz tugadi. Bu asnoda Oltin O'rda xoni To'xtamish bilan ittifoq tuzib olgan Xorazm hukmdori Yusuf so'fi, uning yordamida Amir Temur davlati hududlariga bir necha bor yurish qilib, Qorako'l viloyati va Buxoro tumanlarini talon-taroj etdi. Bunday vaziyat shubhasiz, 1379- yilda Amir Temurni to'rtinchi marotaba Xorazmga qo'shin tortishga majbur etdi. Lekin, bu yurish ham avvalgilari kabi sulh tuzish bilan tugadi. Biroq shunga qaramay, Yusuf so'fi ilgari Xorazmning Chig'atoy ulusiga tegishli bo'lgan janubi-sharqiy (Kot va Xiva shahrilari birga) qismini yana qaytadan bosib oldi. Amir Temur davlatiga nisbatan Yusuf so'fining tutgan bunday tajovuzkorona siyosati Xorazm ustiga Amir Temurning beshinchi marta yurish qilishiga sabab bo'ldi.

¹¹ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/amir-temur-buyuk-davlat-arbobi-va-sarkarda>

1388- yilda Xorazmning poytaxti vayron etilib, uning hududlari Amir Temur davlatiga bo'ysundirildi¹².

Bu orada Amir Temur Mo'g'uliston hokimi Qamariddin bilan ham to'qnashib qoldi, chunki bu davrda uning Movarounnahrda bo'lgan talonchilik xurujlari kuchayib ketgandi. 1370 -1371- yillarda u Toshkent va Andijon ustiga bir necha bor bosqin qilib, talab qaytgandi. 1376- yilda esa Qamariddin hatto Farg'ona vodiysining talaygina qismini bosib oldi. Amir Temur mamlakatning shimoli-sharqiy hududlariga nisbatan bo'layotgan muttasil tahdidni bartaraf qilish uchun Qamariddinga jiddiy zarba berishga kirishadi. Yigirma yil (1371-1390) mobaynida Sohibqiron Mo'g'ulistonga yetti marta yurish qilib, mo'g'ul hukmdorlari Anqoto'ra va Qamariddin ustidan g'alaba qozondi. Shu yilda Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda ichki tarqoqlik, o'zaro nizolar, shuningdek Mo'g'uliston tomonidan bo'lib turgan tazyiqqa chek qo'yib, ushbu hududda yashovchi elu elat va xalqlarni yagona davlatga birlashtirdi. Bu shubhasiz, Movarounnahr aholisi taqdirida ijobiy ahamiyat kasb etdi.

Amir Temur bu bilan qanoatlanmadi. Tez orada u qo'shni davlatlar va xalqlar ustiga yurish qilib, ularni o'ziga bo'ysundirish va markazlashgan buyuk saltanat barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Bu davrda Oltin O'rda, Xuroson va Eronidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat uning uchun juda qo'l keldi. Amir Temur harbiy yurishni Xurosondan boshladi. 1381- yil u Hiroti egalladi. Saraxs, Jom va Qavsiya shaharlari jangsiz taslim bo'ldi. Xuroson, xususan uning poytaxti Hirot strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, Eron, Iroq, Shom va boshqa mamlakatlarga o'tishda ko'priq vazifasini o'tardi. 1381-1384- yillar davomida Amir Temur Eronning katta qismini egalladi. Avval (1381) Kalot, Turshiz va Sabzavor, keyin (1383) Seistonning Zireh, Zova, Farah va Bust qal'alari, 1384- yilda esa Astrobod viloyati va Ozarbayjonning Omul, Sori, Sultoniya va Tabriz shaharlari bo'ysundirildi¹³.

¹² Норкулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Урганч: Хоразм нашриёти, 1996. – Б. 56.

¹³ Амир Темур жаҳон тарихида. – Т.: Шарқ, 1996. – Б. 92.

Amir Temur Eron, Ozarbayjon, Iroq va Shom (Suriya) ustiga uch marta lashkar tortdi. Bu yurishlar tarixda «uch yillik», «besh yillik» va «etti yillik» urushlar nomi bilan mashhur. Uch yillik (1386-1388) harbiy yurishlar oqibatida Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Van ko'li atrofidagi yerlar egallandi¹⁴.

Amir Temur shu bilan birga shimoli-g'arbdan, ya'ni Oltin O'rda tomonidan bo'layotgan tazyiqqa barham berish maqsadida To'xtamishga qarshi uch marta qo'shin tortishga majbur bo'ldi. U 1389- yilda Dizaq (Jizzax)ning Achchiq mavzeida, 1391- yilning 18- iyunida (hozirgi Samara bilan Chistopol shahrilari oralig'ida joylashgan Qunduzcha (Kondurcha) daryosi vodiysida va nihoyat, 1395- yilda (28- fevral) Shimoliy Kavkazda Terek daryosi bo'yida To'xtamish qo'shiniga qaqshatqich zarba beradi. Amir Temur harbiy yurishlari oqibatida Quyi Idil (Volga) viloyatlari, Saroy Berka, Saroychik va Hojitarxon (Astraxon) kabi shaharlar g'orat qilindi. Amir Temur To'xtamishni quvib Ryazan viloyatigacha bordi va Yeles shahrini ishg'ol qildi¹⁵.

Sharafuddin Ali Yazdiy Amir Temurning Moskva yurishini shunday ta'riflaydi: «Sohibqiron Maskavga sorikim, Rusning shaharlaridan erdi, tavajjuh qildi. Anda yetkonda nusratshi'or cheriki ul viloyatni (shahar va atrofini) chobtilar va andag'i hokimlarni tobe' qildi. Va cherikning eliklariga sonsiz mol tushti...» («Zafarnoma», 179-bet). Bu urushda Azaq (Azov), Kuban va Cherkas yerlari ham kuchli aziyat chekdi. Qizig'i shundaki, Amir Temur Idilning Turotur kechuvi bo'yida O'rusxonning o'g'li Quyrichoq o'g'lonni chaqirtirib, unga qo'lga kiritilgan sobiq Jo'chi ulusini in'om etdi. Rossiya tarixchilari Bobur D. Grekov va A. Yu. Yakubovskiyning yozishlaricha, Amir Temurning To'xtamish ustidan qozongan g'alabasi, faqat Markaziy Osiyo uchun emas, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek tarqoq Rus knyazliklarining birlashishi uchun ham buyuk ahamiyat kasb etgan.

¹⁴ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/amir-temur-buyuk-davlat-arbobi-va-sarkarda>

¹⁵ Амир Темур жаҳон тарихида. – Т.: Шарқ, 1996. – Б. 86.

Shundan so‘ng Amir Temur butun e‘tiborini Eron, Iroq, Suriya, Kichik Osiyo va Hindiston yerlarini uzil-kesil zabt etishga qaratdi. U besh yillik (1392-1396) urush davomida G‘arbiy Eron, Iroqi Ajam va Kavkazni egalladi, natijada muzaffariylar va jaloiriylar sulolasining hukmronligi barham topdi¹⁶.

Amir Temurning Hindiston ustiga qilgan urushi (1398- yil may – 1399- yil mart) qariyb o‘n bir oy davom etdi. Amir Temur Hindistondan katta o‘lja, shu jumladan 120 jangovar fil bilan qaytdi. O‘ljalarning bir qismi qo‘shinga taqsimlab berildi, qolgani Samarqand va Kesh shahrilarida olib borilayotgan qurilishlarga sarflandi.

Amir Temurning 1399 – 1404- yillarda olib borgan harbiy yurishlari natijasida Shomning Halab (Aleppo), Xums, Baalbek (Ba‘albak), Dimishq (Damashq) kabi yirik shaharlari va Iroqi Arabning Ubuliston o‘lkasi (qadimiy Kappadokiya) bilan Bag‘dod, shuningdek Turkiyaning katta qismi zabt etiladi. Anqara jangida Amir Temur jahonning buyuk sarkardalaridan biri Boyazid Yildirim ustidan g‘alaba qozondi. Turkiya sultoni asirga olindi. U bilan birga xotini serb malikasi Olivera, o‘g‘illari Muso va Iso Chalabiylar ham asirga tushdilar. So‘ng, Amir Temur Anadolu yarim orolini egallab, O‘rta dengizning sharqiy sohilida joylashgan Izmir shahrini zabt etdi va salibchilarning Yaqin Sharqdagi oxirgi qarorgohiga barham berdi. So‘ngra, Egey dengizida joylashgan Xios va Lesbos orollaridagi Genuya mulklarining hukmdorlari unga taslim bo‘ldilar, Misr ham o‘z itoatkorligini izhor etdi¹⁷.

Amir Temur Anqara, Nikeya, Bursa va Izmir shahrilarini egallab, Vizantiya va butun nasoro olamining Boyazidga yig‘ib bergan bojlaridan iborat katta boylikni qo‘lga kiritdi. Birgina Bursa shahridan olingan oltin va javohirlarning o‘zi kattagina karvonga yuk bo‘lgan. Bandi qilingan Boyazid o‘rdugohga olib kelingach, Amir Temur unga hurmat va ehtirom ko‘rsatdi. Uning vafotidan so‘ng

¹⁶ Amir Temur Kўрагон. Зафар йўли / Нашрга тайёрловчи, таржимон ва изоҳлар муаллифи Ашраф Аҳмад. - Т.: Шоёб, 1992. – Б. 32.

¹⁷ Норкулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Урганч: Хоразм нашриёти, 1996. – Б. 125.

(1403- yil 9- mart) esa vorislariga himmat ko‘zi bilan boqib, ularga beqiyos muruvvatlar qildi. Chunonchi Boyazidning to‘ng‘ich o‘g‘li Sulaymon Chalabiyni turklarning Yevropadagi viloyatlariga hokim etib tayinladi. Edirne (Adrianopol) shahri uning poytaxti qilib belgilandi. Anadoluning shimoli-g‘arbiy qismi suyurg‘ol sifatida Iso Chalabiyga in‘om qilinib, Bursa shahri uning poytaxtiga aylantirildi. Usmonli turklar davlatining markaziy qismini boshqarishni Muso Chalabiyga topshirdi. Amir Temur Usmonli turklar davlatini butunlay bosib olish niyatida bo‘lmagan, chunki u Yevropa davlatlarining Yaqin Sharq mamlakatlariga nisbatan tajovuzkorona niyatda ekanligini yaxshi tushunar edi. Shuning uchun ham Amir Temur Usmonli turklar davlatini saqlab qoldi va Boyazidning vorislariga muruvvat qo‘lini cho‘zdi. Shunday bo‘lsada, Boyazid ustidan qozonilgan bu g‘alaba bilan Amir Temurni Frantsiya qiroli Karl VI (1380 - 1422), Angliya qiroli Genrix IV (1399 - 1407) tabriklab, unga maxsus maktub yubordilar. Chunki Amir Temur endigina uyg‘onayotgan Yevropaga ulkan xavf solib turgan Usmonli turklar davlatiga zarba berib, butun Yevropaning xaloskoriga aylangan edi.

Amir Temur Kichik Osiyodan Samarqandga qaytgach, 1404- yil 27- noyabrda 200 ming qo‘shin bilan Samarqanddan Xitoy safariga chiqdi. Biroq Xitoy ustiga yurish Amir Temurning O‘trorda vafoti (1405- yil 18- fevral) tufayli amalga oshmay qoldi. Amir Temurning vafoti haqidagi xabar garchi avvalda sir tutilsada, ammo ko‘p vaqt o‘tmay bu noxush xabar mamlakat bo‘ylab tarqalib ketadi. Amir Temurning jasadini Samarqandga olib kelinib dafn qilinadi¹⁸.

Amir Temur - buyuk davlat asoschisi. U Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo‘ltig‘iga qadar g‘oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan saltanatga asos soldi. Bundan tashqari Amir Temur davlatiga Kichik Osiyo, Suriya, Misr va shimoli-g‘arbda Quyi Volga, Don buylari; shimoli-sharqda Balxash ko‘li va Ili daryosigacha; janubi-sharqda esa Shimoliy Hindistongacha bulgan mamlakatlar buysundirildi. Amir Temur davlatni aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan. Uning «...davlat ishlarining to‘qqiz

¹⁸ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/amir-temur-buyuk-davlat-arbobi-va-sarkarda>

ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim», degan soʻzlari buning yorqin dalilidir¹⁹.

Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyosdir. Tarix bu qoʻhna dunyoda oʻtgan koʻp jahongirlarni biladi. Ularning aksariyati faqat buzgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr buyi bunyodkorlik bilan mashgʻul bulgan. Uning «Qay bir joydan bir gʻisht olsam, oʻrniga oʻn gʻisht qoʻydirdim, bir daraxt kestirsam, oʻrniga oʻnta koʻchat ektirdim» degan soʻzlari buning yorqin isbotidir. Amir Temurga har bir zafarli voqea va sevinchli hodisani muhtasham meʼmorlik obidasi barpo etish bilan nishonlash odat boʻlgan. Shu maqsadda Hindiston, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari mamlakatda hashamdor imoratu inshootlar bino qilganlar.

Amir Temur zabt etgan mamlakatlarning bir qator shaharlari (Bagʻdod, Darband, Baylaqon)ni qayta tikladi. Amir Temur Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bagʻdodda madrasa, Turkistonda mashhur shayx Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirgan boʻlsada, lekin asosiy eʼtiborini ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandga qaratdi. Keshda otasining qabri ustiga maqbara, oʻgʻli Jahongirga maqbara bilan masjid qurdirdi. Amir Temur hukmronligining ilk davrida Kesh shahrini poytaxtga aylantirish niyatida boʻlib, uning obodonchiligiga katta ahamiyat berdi, bu yerda mashhur Oqsaroy qad koʻtardi. Amir Temur Keshni Movarounnahrning madaniy markaziga aylantirishga harakat qildi. Shu boisdan bu shahar «Qubbat ul-ilm val-adab» unvoniga ega boʻldi²⁰.

Saltanat poytaxti Samarqand Amir Temur davrida ayniqsa gullab yashnadi. Shaharda Isfahon, Sheroz, Halab, Xorazm, Buxoro, Qarshi va Kesh shahrilarining meʼmoru binokorlari qoʻli bilan saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar quriladi. Shahar tashqarisida esa bogʻ-rogʻlar va boʻstonlar barpo etiladi. Xususan Shohizinda meʼmoriy majmuasiga mansub Shodimulk ogʻo maqbarasi, Shirinbeka ogʻo maqbarasi va boshqalar quriladi. Shaharda Bibixonim jome masjidi, Amir

¹⁹ Фоййбов Н. Амир Темур даври маънавияти. – Т.: Ф.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 124.

²⁰ Амир Темур жаҳон тарихида. – Т.: Шарқ, 1996. – Б. 96.

Temurning qarorgohi Ko'ksaroy va Bo'stonsaroylar qad ko'taradi. Umuman olganda Samarqand shahri Amir Temur davrida o'zining qadimiy o'rnini Afrosiyobdan birmuncha janubroqda butunlay yangitdan qurildi. Shahar tevaragi mustahkam qal'a devori bilan o'ralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron va Feruza kabi nomlar bilan ataluvchi 6 ta darvoza o'rnatildi. Movarounnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan Zarafshon vodiysida o'nlab sug'orish tarmoqlari chiqarilib, dehqonchilik maydonlari kengaytirildi. Yangi qishloqlar barpo etildi²¹.

Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur Samarqand atrofida qad ko'targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari Dimishq (Damashq), Misr, Bag'dod, Sultoniya va Sheroz nomlari bilan atadi. Amir Temurning fikricha, Samarqand kattaligi, go'zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog'i lozim edi. Hofizi Abro'ning yozishicha, Amir Temur turk, arab va eronliklar tarixini chuqur bilgan. U davlat ahamiyatiga ega bo'lgan har bir masalani hal etishda, shu sohaning bilimdonlari va ulamolari bilan maslahatlashardi. Odatda u tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, tarix, adabiyot, tilshunoslik ilmi namoyandalari, shuningdek ilohiyot va din sohasidagi mashhur ulamolar bilan suhbatlar o'tkazardi. Amir Temur saroyida ulamolardan mavlono Abdujabbor Xorazmiy, mavlono Shamsuddin Munshi, mavlono Abdullo Lison, mavlono Bahruddin Ahmad, mavlono Nu'monuddin Xorazmiy, Xo'ja Afzal, mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiy va boshqa xizmat qilardi²².

Alisher Navoiyga Amir Temurning ilm va ma'naviyat aqliga ko'rsatgan g'amxo'rliqi juda yoqar edi. Bu haqda Navoiy shunday degandi: «Agar Temur qayerda fan, madaniyat va san'at ahlini uchratsa, ularni o'z homiyligiga olar, ularga izzat-ikrom ko'rsatar, ularning tarbiyasiga ahamiyat berar hamda bu zotlardan o'z oliy majlisida nadim (maslahatchi) sifatida va boshqa lavozimlarda

²¹ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/sarkarda/temur>

²² <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/amir-temur-buyuk-davlat-arbobi-va-sarkarda>

foydalanardi». Amir Temur davrida savdo va hunarmandchilik g'oyatda rivojlanadi. Yangi bozorlar, savdo rastalari barpo qilinadi. Klavixo Samarqand bozorlarida bug'doy va guruchning mo'lligi va arzonligi haqida gapirib, shahar hunarmandchiligi mahsulotlarini - atlas, kimxob, har xil ip va jun to'qima mollar, mo'ynali va ipakli po'stinliklar, attorlik mollari, ziravor va dorivorlar, zarhal va lojuvardlar hamda boshqa mollarning serobligini ham ta'kidlaydilar.

Bu davrda Amir Temur va uning joy Sulton Mahmudxon asir olingan noiblari Xitoy va Hindistondan O'rta Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga yo'nalgan asosiy xalqaro savdo yo'li - «Buyuk ipak yo'li»ni nazorat qilib, savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta'minlashda, rabotlar, qal'alar, ko'priklar qurish yo'lida muhim chora-tadbirlar ko'rdilar va Sharq bilan G'arb o'rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga g'oyat katta e'tibor berdilar²³.

Amir Temur eng muhimi, Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi mayda hukmdorlar o'rtasidagi tarqoklik va boshboshdoqlikka barham berib, bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqgar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo'shdi. Amir Temur Yevropaning Frantsiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o'rnatdi²⁴.

Amir Temurning harbiy yurishlari, jangu jadallarining oqibatlariga baho berilar ekan, shuni alohida ta'kidlash kerakki, uning faoliyati qo'yilgan maqsad va rejalari jihatidan ikki bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich (1360 - 1386)da Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzish yo'lida kurashdi, Movarounnahrni birlashtirishdan manfaatdor bo'lgan mahalliy zodagonlardan iborat ijtimoiy kuchlar (mulkdor dehqonlar, harbiylar, hunarmandlar, savdogarlar va ruhoniylar) yordamida tarqoq mulklarni birlashtirish uchun kurash olib bordi.

²³ Amir Temur Kўрагон. Зафар йўли / Нашрга тайёрловчи, таржимон ва изоҳлар муаллифи Ашраф Аҳмад. - Т.: Шоёб, 1992. - Б. 125.

²⁴ Ғойибов Н. Amir Temur davri ma'naviyati. - Т.: F.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. - Б. 152.

Amir Temurning bu davrdagi faoliyati O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti taraqqiyoti yo'lida shubhasiz ulkan ijobiy ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda tarqoqlik tugatilib, markazlashgan davlatning tashkil topishi ijobiy oqibatlariga olib keldi. Mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini va mo'g'ullarning bir yarim asrlik hukmronligi natijasida bo'hronga uchragan iqtisodni tiklash uchun qulayroq sharoit vujudga keldi. Ayni vaqtda xo'jalikning asosi bo'lgan dehqonchilikda muayyan siljishlar ro'y berdi. Yangi-yangi ariq (kanal)lar qazilib, dehqonchilik maydonlari kengaydi. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlandi, fan va madaniyat ravnaq topib, shaharlar obodlashdi va gavjumlashdi. Amir Temur biror mamlakatni tasarrufiga olishdan avval albatta o'sha joy aholisiga tinchlik yo'lini taklif etgan, bu yo'l inkor etilgan holdagina harbiy kuch ishlatgan²⁵.

Amir Temur hayotligi chog'idayoq saltanatni asosan to'rt qism (ulus)ga bo'lib, o'g'il, nabiralariga taqsimlab bergan: Xuroson, Jurjon, Mozandaron va Seyiston (markazi Hirot) Shohruxga, G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armaniston (markazi Tabriz) Mironshohga, Fors, ya'ni Eronning janubiy qismi (markazi Sheroz) Umarshayxga, Afg'oniston va Shimoliy Hindiston (markazi G'azna, keyinchalik Balx) Pirmuhammadga suyurg'ol qilib berilgan. Amir Temur davlati o'ziga xos tartib-qoidalarga asoslangan holda idora etilgan. Amir Temur asos solgan bu davlat Xuroson va Movarounnahrda 16-asr boshigacha mavjud bo'lib, Shayboniyxon tomonidan tugatilgan.

Sho'rolar tuzumi davrida Amir Temur shaxsi va faoliyatiga adolatsizlik bilan yondoshilib, bir yoqlama baho berilib kelindi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng bunday qarashlarga barham berildi. Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni o'z joyiga qo'yila boshlandi. O'zbekistonda uning faoliyatini o'rganishga va uni ommalashtirishga keng yo'l ochildi. Uning nomi O'zbekistonda abadiylashtirildi. Ko'plab shahar va qishloqlardagi shoh ko'chalar, maydonlar, jamoa xo'jaliklari, maktablar, kinoteatrlar va boshqa uning nomi bilan ataldi.

²⁵ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/amir-temur-buyuk-davlat-arbobi-va-sarkarda>

Toshkent, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarning markaziy maydonlarida Amir Temurga haykal o'rnatildi, Toshkentdagi Amir Temur xiyobonida Temuriylar davri muzeyi barpo etildi (1996), «Amir Temur» ordeni ta'sis etildi (1996) va Xalqaro Amir Temur jamg'armasi tashkil qilindi (1995). Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda YuNESKO rahbarligida hazrat Sohibqiron tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi (1996). Amir Temur haqida ikki qismdan iborat badiiy film, spektakllar va she'riy hamda nasriy asarlar yaratildi.

1.2. Amir Temur va temuriylar davlati siyosati va jamiyatida malika ayollarning o`rni

Sohibqiron Amir Temur saltanatida Saroy Mulk xonim (Bibixonim)ning tutgan o`rni beqiyos bo`lganligi tarixiy manbalarda o`z aksini topgan. Shuningdek, Saroy Mulk xonimning Amir Temur davlatida yuksak o`ringa ega bo`lganligini Samarqandda barpo etilgan "Bibixonim Jome` masjidi" timsolida ham ko`rish mumkin.

Saroy Mulk xonim chig'atoy ulusiga mansub mo'g'ul xonlaridan Qozonxonning qizi bo'lib, 1341- yilda tug'ilgan. Qozonxon taxtdan tushurilib, qatl qilingan chog'da Saroy Mulk xonim hali besh yoshda edi. Saroy Mulk xonim balog'atga yetgach, 1355- yilda Movarounnahr hukmdori amir Qozog'onning nabirasi amir Husayn uni nikohiga kiritdi.

1370- yilda sohibqiron Amir Temur jangda amir Husaynni yengib, uni qatl qildirgach, Movarounnahr hukmronligini o'z qo'liga oladi. Tabiiyki, amir Husaynning bir necha xotinlari bo'lib, haramning ulug' bekasi - Tarmashirinxonning qizi Suyunch Qutlug' Og'o edi.

Sohibqiron Amir Temur maqtulning haramidagi malikalar orasidan Qozonxonning qizi - Saroy Mulk xonimni, Bayon Sulduzning qizi - Ulus Og'oni,

Xizr Yasuriyning qizi - Islom Og‘oni hamda Tag‘oy Turkon Xotunni tanlab olib, idda muddati uch oy o‘tgach, o‘z nikohiga kiritadi²⁶.

Sohibqiron Amir Temur Saroy Mulk xonimni o‘z nikohiga kiritgach, «ko‘ragon» unvoniga musharraf bo‘ldi. Ko‘ragon iborasi mo‘g‘ulcha so‘z bo‘lib, «kuyov» degan ma‘noni ifodalaydi. Zero, Saroy Mulk xonim mo‘g‘ul xonlaridan birining qizi bo‘lgani tufayli sohibqiron Amir Temur mo‘g‘ul xonining kuyovi, ya‘ni «Amir Temur Ko‘ragon» nomini olgan edi²⁷.

Sohibqiron Amir Temur malika Saroy Mulk xonimni o‘z nikohiga kiritgunga qadar, haramida boshqa xotinlari ham bor edi. Lekin xon avlodiga mansub Saroy Mulk xonim haramdagi barcha malikalardan ulug‘rog‘i hisoblanib, «katta xonim» yoxud «Bibixonim» degan unvonga noil bo‘ladi. Albatta, bunday e‘zozga musharraf bo‘lish uchun aql-zakovat, did-farosat, fikrlash doirasining ulkanligi bosh omil bo‘lgan. Zotan, tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Saroy Mulk xonim zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor va aql-zakovat sohibasi, husn-latofat bobida ham benaziri edi. Saroy Mulk xonim insonparvar, vatanni sevguvchi, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo‘lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan ayol edi. Ayniqsa, ilm-ma‘rifatga alohida e‘tibor ila qarar, tolibi ilmlarga homiylik qilardi²⁸.

Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlarida Saroy Mulk xonim ko‘pincha birga yurgan. Tarixiy manbalarning yakdillik bilan bergan ma‘lumotlariga ko‘ra, o‘ta ziyrak, tadbirkor Saroy Mulkxonim saltanatni boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni hal qilishda o‘zining oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan. Amir Temur Saroy Mulk xonimga oshkora bo‘ysunmasa-da, biroq uning oqilona maslahatlariga o‘zida qandaydir ehtiyoj sezib turgan. Naql qilishlaricha, Amir Temur Eronga qarshi yurish boshlaganda, Isfaxonning qamali ko‘pga cho‘zilib, qo‘shinni ozuqa bilan ta‘minlashga mablag‘

²⁶ Норкулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Урганч: Хоразм нашриёти, 1996. – Б. 36.

²⁷ Амир Темур жаҳон тарихида. – Т.: Шарқ, 1996. – Б. 105.

²⁸ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/temuriy-malikalar/saroy-mulk-xonim-bibixonim>

yetishmay qoladi. Nihoyat, Amir Temur Samarqandga chopar yo‘llab, Saroy Mulk xonimga maktub jo‘natadi. Maktub qisqa 6o‘lib, «Qo‘shinning zahirasi tugadi, xazinadan zar yuboring», deyilgandi. Saroy Mulk xonim maktub mazmunidan ogoh bo‘lgach, maktubning orqa tomoniga «Ulug‘ amir, zaringiz tugagan bo‘lsa, siyosatingiz ham tugadimu?»-deb yozadi va uni choparga tutqazadi²⁹.

Amir Temur maktubni olgach, Saroy Mulk xonimning kinoyali zamzamasini o‘ylab-o‘ylab, nihoyat bir qarorga keladi: lashkargohda so‘yib yeyilgan qo‘y, qoramol, ot va tuya suyaklarini o‘sha kuniyoq yig‘dirib, turli hajmlarda qirqtirib, katta hajmdagisiga katta qiymat, kichigiga kichik qiymat belgilab, unga po‘lat muhrni qizdirib tamg‘a bostiradi hamda muvaqqat pul o‘rnida muomalaga kiritishga farmon beradi. Natijada, qo‘shni shahar va qishloqlarda suyak pulga qo‘shin uchun oziq-ovqat sotib olinadi. Tez kunda Isfaxon shahari taslim bo‘lgach, suyak pullar zar bilan almashtiriladi³⁰.

Amir Temur saroyida joriy qilingan tartibga ko‘ra, chet ellik elchilarni qabul qilish marosimlarida hukmdor yonida xotiilari ham ishtirok etishgan. Ispaniya qiroli Genrix III ning Samarqand hukmdori Amir Temur huzuriga yuborgan elchisi Ryui Gonzales de Qlavixoning yozishicha, 1404- yil 8-sentabr dushanba kuni Amir Temur Samarqand chetidagi «Dilkusho» bog‘ida elchilarni qabul qiladi. Qabul marosimi katta ziyofat va tantana bilan boshlangan. Klavixoning hikoya qilishicha, qabul marosimida hukmdor Temurning yonida Saroy Mulk xokim boshliq boshqa xotinlari ham yuzlariga parda tashlab o‘tirganlar. Ispan qiroli yuborgan hadyalar orasida hukmdorga ko‘proq qizil movut ma’qul bo‘lgan. Bu haqda u o‘z xotinlari, avvalo Saroy Mulk xonim bilan fikrlashadi. 1404- yil 17-oktabr juma kuni Saroy Mulk xonim ham katta ziyofat beradi. Ziyofatda boshqa elchilar qatorida ispan elchisi Ryui Gonzales de Qlavixo ham qatnashadi. Klavixo Temur bog‘larida berilgan ziyofatlarning to‘kin-sochinligi, bog‘lardagi rang-barang ipak chodirlar,

²⁹ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/amir-temur-buyuk-davlat-arbobi-va-sarkarda>

³⁰ Файзиёв Т. Темурий маликалар. - Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1994. – Б. 5.

undagi oltin-kumush jihozlaru bog'larning o'ta did va farosat bilan jihozlangani haqida maroq ila hikoya qiladi³¹.

Naql qilishlaricha, Saroy Mulk xonim kunlardan bir kun o'z jamg'armasi hisobiga, savoblik uchun xudo yo'lida bir madrasa bino qildirishga eri Amir Temurdan ijozat so'raydi. Hukmdordan ruxsat bo'lgach, otasi Qozonxon tomonidap sovg'a qilingan bir juft olmos baldog'ini sotuvga qo'yib, bu mablag'ni madrasa qurilishiga sarflaydi. Saroy Mulk xonim madrasa qurilishi jarayonnda qurilish maydoniga tez-tez kelib ish boshqaruvchilarga fikrini aytadi. Madrasa qurilishi nihoyasiga yetayotganda ham Saroy Mulk xonim odati bo'yicha o'z kanizlari bilan qurilish maydoniga kelib, ustaboshiga binoning kam-ko'stlari haqida ko'rsatmalar beradi. Ustaboshi Saroy Mulk xonimning yuzini ko'rmagan bo'lsa-da, uning jozibali so'z ohanglaridan oqila va o'tkir zehqli ayol ekanligiga imoni komil bo'ladi. Malika ketgach, ustaboshi xonim bilan bo'lgan bir nafaslik muloqotdan olgan taassurotini ichiga sig'dirolmay, hissiyoti g'alaba qilib, atrofidagi ustalarga:

- Yopiray, ayol zoti ham shunchalik dono va oqila bo'ladimu?.. Xonim haqida shu kungacha eshitgan barcha ta'rif-tavsiflarning hammasi to'g'ri ekan. Qani endi hamma ayollar ham shunday nafosatga ega bo'lsaydi, - deb chuqur uf tortadi.

Ustaboshining beg'ubor so'zlari tez orada qurilishdagi barcha korfarmon, usta va mardikorlar orasida tarqaladi. Bir-ikki kun o'tgach, mish-mishlar zo'rayib, «nima deysan, ustaboshi xonimga g'oyibona oshiq bo'lib qolgan emish», degan so'zlar tarqab ketadi. Tabiiyki, bu mish-mishlar Saroy Mulk xonim qulog'iga yetib boradi. Ustaboshi o'zining bemulohazaligidan o'kinib, suyaksiz tilning jarohatidan nolib turgan bir vaqtda, Saroy Mulk xonimning xos kanizlaridan biri qo'lidagi ro'molga o'ralgan laganchani ustaboshiga uzatarkan:

- Xonim ushbu tuxumlarni sizga yubormishlar. Toki mazkur yetti xil rangga bo'yalgan yetti dona tuxumni tanovul aylab, alarning mazasi bir xilmu yoxud har

³¹ Файзиев Т. Темурий маликалар. - Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1994. – Б. 6.

birining mazasi alohidamu, ushbuni farqlab bergaysiz. Javobini ertaga qiyom paytida eshiturmiz,- deb qaytib ketadi.

Ustaboshi ro‘molni ochib, yetti xil rangdagi tuxumni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgach, xonim nimaga shama qilayotganini tushunib, chuqur iztirobga tushadi.

Shu kunlarda sohibqiron Amir Temur navbatdagi yurishdan qaytib kelyayotgani, bugun-erta Samarqandga yetib kelishi haqida ovozarlar tarqaladi. Ustaboshining ko‘z-o‘ngi qorong‘ulashib, qo‘li ishga bormaydi³².

«Mish-mishlar boshimga balo bo‘ldn, hademay sohibqiron yetib kelsa, meni sog‘ qo‘ymaydp, jazoga mustahiq qilmog‘i muqarrardur. Nachora, taqdiri azalda bitilg‘on erkanda. Ammo chiqmagan jondin umid, deganlar mashoyixlar, bu yerdin qochmoq chorasini izlamoq darkor. Darvoqe, qochib ham qayerga boraman. Pastga ham tushib bo‘lmaydur, darhol tutub zindonga solurlar. Ne qilmoq kerak?» deb og‘ir o‘yga toladi.

Ustaboshi o‘ylab-o‘ylab oxiri bir qarorga kelgach, shogirdini yoniga chaqirib, uni o‘z rejasidan voqif qiladi. U o‘ziga ikkita qanot bog‘lab, gumbaz ustidan sakraydi. Qanot yordamida shahar chetidagi bir yaylovga sho‘ng‘iydi. Ammo qo‘nishga ulgurmayoq boshi yerga qadalib, olamdan o‘tadi. Bu manzarani kuzatib turgan shogird «Eh, attang, ustoz andak xatoga yo‘l qo‘yibdurlar. Qanot bilan birga, dum ham bog‘lamoq lozim erdi», - deb o‘ziga qanot va dum bog‘laydida, gumbazdan yalanglikka parvoz qiladi. Voqean shogird dum yordamida sihat-salomat yalanglikka qo‘nib, ko‘zdan g‘oyib bo‘lgan. Shundan buyon xalq orasida «ustasidan shogirdi o‘zgan» degan maqol qolgan deyishadi³³.

Saroy Mulk xonim qurdirgan madrasa XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Samarqanddagi madrasalar orasida ulkan va mahobatlilik jihatidan ajralib turgan. Madrasaga zamonasining yetuk mudarrisleri tayinlannb, ular tolibp ilmlarga diniy va dunyoviy ilmlardan dars berganlar. Saroy Mulk xonim madrasa tolibi ilmlarining ahvolidan tez-tez xabar olib, ularga homiylik qilib turadi.

³² <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/amir-temur-buyuk-davlat-arbobi-va-sarkarda>

³³ Норкулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Урганч: Хоразм нашриёти, 1996. – Б. 78.

Afsuski, Saroy Mulk xonim madrasasi uzoq turmadi. Rivoyatlarga ko'ra XVI asr oxirida Buxoro amiri Abdullaxonning temuriylarga xusumati tufayli, maxsus farmon bilan madrasani buzdirib tashladi. Faqat madrasa yoniga qurilgan maqbaragina saqlanib qolgan. Maqbaraning old tomoni rang-barang koshinlar bilan bezatildi. Maqbaraning ichki qismidagi bezaklarga yashil, qizil va qora bo'yoqlar bilan jilo berildi. Izoralarga yulduz shaklida ko'k naqshlar ishlanib, koshinli hoshiyalar bilan o'raldi. Maqbara dahmasiga tashqaridan maxsus eshik orqali kiriladi. Dahma devorlari xilma-xil koshinlar bilan bezatilgan bo'lib, dahma ichiga tosh tobut qo'yilgan³⁴.

Samarqandda mashhur Bibixonim masjidi jome'si ham bor. Bu masjidni amir Temur Hindiston yurishidan qaytib kelgach, 1399-1404- yillar mobaynida o'zining ulug' bekasi Saroy Mulk xonimga atab qurdirgan. Binobarin, bu «Bibixonim» masjidi jome'yi nomi bilan mashhur bo'lgan. Masjidi jome' O'rta Osiyodagi obidalarining eng yirigi sanaladi. Uning hovlisining sahni 63,8X76,0 metr bo'lib, atrofi ravoq va peshtoqlar bilan o'ralgan. Masjidning umumiy sahni esa 167×109 metrdir.

Davr o'tishi mobaynpda Bibixonim masjidi zilzilalar ta'sirida ancha futurdan ketib, vayronaga aylandi. Hozirgi kunda Bibixonim masjidi bir-biri bilan bog'lanmagan olti bo'lakdan iborat bo'lib, hovlining yuqori qismida mehrobli baland peshtoqli bino, poygakda masjidning ikkiga ajralgan peshtoqi hamda shimoli-g'arb qismida yakka holda saqlanib qolgan minora. O'z davrida mazkur bo'laklar uch qator oq marmar ustunli, yengil ravoqli peshayvonlar bilan bir-biriga birlashtirilib, ularning ustida 400 ta gumbazchalar bo'lgan. Ustunlarning jami 480 ta bo'lib, oralig'i - 3,5 metr, ostki qismi maxsus tagkursili, o'rta qismi o'yma naqshkor, yuqori qismi rangli koshinlar bilan qubba shaklida ishlangan. Hovli o'rtasiga marmar toshdan ulkan lavh - Qur'on qo'yib o'qiladigan maxsus kursi qo'yilgan. U avvallari asosiy bino ichida bo'lib, 1875- yilda gumbazning qulash xavfi tug'ilganda hovli o'rtasiga chiqarib qo'yildi. Mazkur lavh Ulug'bek Mirzo

³⁴ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/temuriy-malikalar/saroy-mulk-xonim-bibixonim>

ko‘ragonning farmoni bilan yasalgan. Lavhga «Sultoni a‘zam, oliy himmatli xoqon, din-diyonat homiysi, Hanafiya mazhabining posboni, aslzoda sulton ibn Sulton amir al-mo‘minin Ulug‘bek ko‘ragon» deb yozilgan³⁵.

Bibixonim masjidiga kiraverishdagi katta peshtoqning ustki qismi 1897-yilgi zilzilada qulab tushgan. Peshtoqning ichki qismida kichikroq ikkinchi ravoq va uning o‘yma marmar hoshiyali darvozasi ham bo‘lgan. Darvoza ustiga o‘rnatilgan lavhada masjidning qurilgan yili va amir Temurning shajarasi bitilgan. Masjidning «haft jo‘sh» etti xil metall qotishmasidan yasalgan qo‘sh tabaqali darvozasi bo‘lgan. Bu darvoza keyinchalik yo‘qolib ketgan.

Bibixonim masjidi ayni davrda vayrona holda bo‘lsa-da, serhasham bezaklarning o‘ta nafisligi kishi diqqatini o‘ziga jalb etadi. Rang-barang shakl va naqshlar o‘sha davr ustalarining nozik did va yuksak mahoratidan dalolat berib turadi³⁶.

1405- yil 18- fevralda sohibqiron amir Temur O‘trorda vafot qilgach, Samarqand taxtiga uning nabirasi Xalil Sulton Mirzo (1384-1411) o‘tirdi. Ibn Arabshohning bergan ma‘lumotiga ko‘ra, Xalil Sulton Mirzoning xotini Shod Mulk begim 1408- yilda Saroy Mulk xonimni zaharlab o‘ldirgan. Saroy Mulk xonimning jasadini o‘zi qurdirgan madrasasi yonidagi maqbaraga «tosh tobut»ga solib, mo‘miyolanib dafn qilingan. 1941- yil iyun oyida Go‘ri Amir maqbarasida abadiy uyquga ketgan amir Temur, Shohruh Mirzo, Muhammad Sulton Mirzo va Ulug‘bek Mirzolarining qabrlari ochib tekshiriladi. Saroy Mulk xonim qabri ham ochilib, jasadni tekshirish maqsadida Toshkentga olib kelishgan. Keyinchalik yana Samarqandga olib borib qo‘yilgan.

Sohibqiron Amir Temur Saroy Mulk xonimdan farzand ko‘rmagan. Ammo sohibqiron o‘z o‘g‘li Shohruh Mirzoni, suyukli iabiralari Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug‘bek Mirzo va boshqa mirzolariii bevosita zukko Saroy Mulk xonim tarbiyasiga topshirgan edi.

³⁵ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/amir-temur-buyuk-davlat-arbobi-va-sarkarda>

³⁶ Файзиёв Т. Темурий маликалар. - Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1994. – Б. 7.

Sohibqiron Amir Temur vafot etganidan so`ng, ulkan saltanat poytaxti Samarqand 1405- yil mart oyida Xalil Sulton Mirzo tomonidan egallandi. Xalil Sulton Mirzo saroyida Shodmulk xotun katta mavqega ega bo`ldi.

Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Shodmulk Xotun Samarqand shahrining quyi tabaqasiga mansub hunarmand oilasida dunyoga keladi. Amir Temurning suyukli nabirasi Xalil Sulton Mirzo (Mironshoh Mirzoning o`g`li, 1366-1408) kunlardan bir kun shahar chetidagi bog` ko`chadan otda o`tib ketayotib, Shodmulkka ko`zi tushadi va uni sevib qoladi. Xalil Sulton Mirzo (1384-1411) jasoratli, harbiy salohiyatli va iste`dodli yigit bo`lgan. Balog`atga yetgach, uni aslzoda xonadon qiziga uylantirishgan. Undan bir o`g`li ham bor edi. Ammo Shodmulkni sevib qolgach, o`z zamonasining taomiliga qarshi o`laroq, shu qizga uylanadi. Tabiiyki, bunday «tengsiz» nikohga Temur boshliq butun avlod qarshi turishgan. Biroq Xalil Sulton Mirzoning qat`iy qarori g`olib chiqadi. Amir Temur avvalida qattiq g`azablangai bo`lsa-da, keyinchalik nabirasiga bo`lgan yuksak e`tiqodi tufayli uning gunohini kechiradi³⁷.

Amir Temur vafotidan so`ng, 1405- yil mart oyida Xalil Sulton Mirzo Samarqand taxtiga o`tiradi. U saltanatni boshqarishda adolatni bosh mezon qilib, mamlakat ichki va tashqi ahvolini yaxshilash choralarini izlaydi. Lekin xotini Shodmulk begimning saltanat ishlariga faol aralashuvi natijasi o`laroq, arkoni davlat orasida ayrim noroziliklarning kelib chiqishiga sabab bo`ladi. Shodmulk begim Temurning barcha beva xotinlari-yu xos kanizaklarini harbiy boshliqlar va amaldorlarga in`om qilish haqida Xalil Sulton Mirzoga maslahat berib, uni ko`ndiradi. Jumladan, 1406- yilda Temurning beva xotini Tuman Og`o begimni amir Shayx Nuriddinga xotinlikka beradi. Ibn Arabshohning yozishicha, Saroy Mulk xonim bilan Tukul xonimlarni Shodmulk begimning maxfiy buyrug`iga binoan zaharlab o`ldirganlar. Temur davridagi bek va amaldorlarga yetarli iltifot ham ko`rsatilmaydi. Xazina va saltanat ishlarida Shodmulk begimning faoliyati

³⁷ Норкулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Урганч: Хоразм нашриёти, 1996. – Б. 126.

battar kuchayadi. Shodmulk begimning xohish-irodasi ila quyi tabaqaga mansub kishilar yuqori lavozimlarga ko'tariladi. Temur safdoshlariga qarama-qarshi o'laroq, Shodmulk begimning xohishiga muvofiq, qandaydir Bobo Turmush degan kimsa to'la huquqli vazirlik mansabini egallaydi. Avvalgi amaldorlardan Ollohdod va Arg'unshohlarga ham hech qanday rag'bat bo'lmaydi³⁸.

Arkoni davlat o'rtasida vujudga kelgan bunday nobarobarlik saltanat poydevoriga rahna solishi muqarrar edi. Zotan, ana shunday qulay vaziyat Shohruh Mirzo uchun asqotdi. 1409- yil bahorida Shohruh Mirzo qo'shini Bodxez mavzeiga kelib to'xtaydi. Xalil Sulton Mirzoning qo'shini esa Shahrisabzda jangga tayyor holda turardi. Shu asnoda shimolda amir Xudaydod boshchiligida qo'zg'olon ko'tarilgani xaqida xabar qeladi. Xalil Sulton Mirzo asosiy qo'shinni Shahrisabzda qoldirib, 4000 askar bilan amir Xudaydodga qarshi borishga majbur bo'ladi. 1409- yil 30- mart kuni Xalil Sulton Mirzo amir Xudaydod tomonidan asirga olinib, Samarqandga keltiriladi va keyinchalik Farg'onaga olib ketiladi. Uning xotini Shodmulk begimni esa Shohruh Mirzoga topshiradilar. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Shohruh Mirzo Shodmulk begimni tahqirlab, ko'p azob-uqubatlarga duchor qiladi. Nihoyat, Xalil Sulton Mirzoni Farg'onadan O'trorga keltirib, amir Shayx Nuriddin vositachiligida Shohruh Mirzo bilai Xalil Sulton Mirzo o'rtasida bitim tuziladi. Bitimga muvofiq, Xalil Sulton Mirzo Movarounnahr hukmronligidan voz kechadi. Buning evaziga Ray viloyatining hokimi etib tayinlanadi. Xotini Shodmulk begim qaytarib beriladi. Ko'p o'tmay, 1411- yil 4- noyabr chorshanba kuni Xalil Sulton Mirzo Ray shahrida betob bo'lib, vafot etadi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, u zaharlanib o'ladi. Shundan so'ng 1411- yilning oxirida eridan keyin yashashni istamagan Shodmulk begim zahar ichib olamdan o'tadi.

Temuriylar, jumladan Xuroson hukmdori Shohruh mirzo poytaxti Hirot shahrida muhim o'rin tutgan malika ayollardan biri Gavharshod begimdir.

³⁸ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/temuriy-malikalar/shodmulk-xotun>

Ganhar Shod begim Amir Temurning to'rtinchi o'g'li Shohruh Mirzoning suyuqli katta xotini edi. U Chig'atoy zodagonlaridan G'iyosiddin Tarxonning qizi edi. Rivoyat qilishlaricha, G'iyosiddin Tarxonning bobokaloni - Qushlik bir vaqtlar Chingizxon mulozimati bo'lib, bir jang asnosida uni o'limdan saqlab qolgan ekan. Shundan buyon Chig'atoy ulusida bu avlod yuksak e'tibor va hurmatga sazovar bo'lgan.

Gavharshod begim 1379- yilda tug'ilib, 1393- yilda Shohruh Mirzo nikohiga kirgan. Undan uch o'g'lu ikki qiz ko'rgan. To'ng'ich o'g'li - Ulug'bek Mirzo ko'ragon (Muhammad Tarag'ay, 1394-1449), o'rtancha o'g'li - Boysung'ur Mirzo (1397-1433) va kichik o'g'li - Muhammad Jo'ki Mirzo (1401-1445) lardir.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Gavharshod begim yuksak did-farosatli, oqila, tadbirkor, suxandon, bir so'zli - qat'iyatli, husn bobida ham benazir ayol bo'lgan. Tabiatan dindor Shohruh Mirzo ko'p vaqtini toat-ibodat va kitob mutolaasiga sarflardi. Saltanat, devon ishlarini o'ktam va tadbirkor xotini Gavharshod begim boshqarardi. Bu ziyrak ayol qaynotasi Amir Temur vafotidan so'ng, sekin-asta saltanat ishlarini o'z qo'liga oldi. Zotan, Shohruh Mirzoning o'zi ham xotini Gavharshod begimning donoligiga tan berar, saltanatni boshqarishda oqilona va tadbirli maslahatlariga ehtiyoj sezib turardi. Shu bois, saltanatga doir ko'pgina ishlar malikaning nazar-e'tiboriga havola qilingan. Viloyatlarga hokim tayinlash, qo'shinga sarkarda belgilash, hatto kimga qanday in'om va kimga qanday jazo berish masalalari ham malikaning inon-ixtiyorida edi. Masalan, 1440-yil 6- mayda mashhur Hirot tarixchisi (keynnchalik saroy tarixchisi) Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Muhammad Xavofiy (1375-1442) malika Gavharshod begimning g'azabiga uchrab, ikki marotaba qisqa muddatli qamoqqa hukm qilinadi³⁹.

Gavharshod begim Shohruh Mirzoning harbiy yurishlarida ishtirok qilarkan, shahzodalarning fe'l-atvori va harbiy boshliqlarning xatti-harakatidan voqif bo'lib turardi. Taxtga valiahd tayinlash masalasida ham Gavharshod begim o'z irodasipi o'tkazishga urinadi. Chunonchi Shohruh Mirzo o'zining kenja o'g'li

³⁹ Файзиев Т. Темурий маликалар. - Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1994. – Б. 8.

Muhammad Jo'ki Mirzoni valiahd etib tayinlashga harakat qiladi. Biroq, Shohruh Mirzoning bu rejasi malikaga yoqmaydi. Malika o'z o'g'li Muhammad Jo'ki Mirzoga nisbatan nabirasi Alouddavla Mirzo (1417 - 1461)ni valiahdlikka munosib, deb bilardi. Ammo o'rtancha o'g'li marhum Boysung'ur Mirzoning o'g'li Alouddavla Mirzoni oshkora valiahd etib tayinlashga to'ng'ich o'g'li Ulug'bek Mirzo ko'ragondan hayiqar, bu masalani Shohruh Mirzo qo'li bilan hal qilishga urinardi⁴⁰.

1444- yilda Shohruh Mirzo og'ir xastalanib, o'lim to'shagida yotganida, arkoni davlat hukmdorning tez fursatda olamdan ko'z yumushiga ishonchlarp komil bo'lgach, Balx viloyati hokimi bo'lib turgan Muhammad Jo'ki Mirzoga shoshilinch xabar yuboradilar. Shahzoda zudlik bnlan Hirotga yetib keladi. Biroq shahzoda yetib kelguncha, onasi malika Gavharshod begimning farmoniga muvofiq, harbiy qo'shinlar sardori Jaloliddin Feruzshohning valiahdlikka tayinlangan Alouddavla Mirzoga bay'at (ishonch yorlig'i) berib, qasamyod qilgani haqidagi xabarni eshitadi. Muhammad Jo'ki Mirzo onasi Gavharshod begimning bunday «marhamat»idan qattiq ranjiydi va otasini ziyorat qilgach, Balxga qaytib ketadi. Shu voqeadan so'ng tez kunda Shohruh Mirzo kasaldan forig' bo'lib, o'rnidan turadi. Bo'lib o'tgan voqea uchun malika Gavharshod begim emas, Jaloliddin Feruzshoh jazolanadi. Malikaning rejasi taqdir taqozosi bilan bir necha yilga orqaga suriladi. 1445 yilda shahzoda Muhammad Jo'ki Mirzo kasallannb vafot etadi. Shundan so'ng Shohruh Mirzo o'ziga valiahd tayinlash masalasida umrining oxirigacha bir qarorga kelolmaydi.

Shohruh Mirzo davrida Xuroson siyosiy-ijtnmoiy va madaniy jihatdan ancha gurkirab o'sdi. Mamlakat poytaxti Hirot iqtisodiy va madaniy yuksalishda Sharqning epq nufuzli shaharlaridan biriga aylandi. Tabiyki, mamlakatning bunday yuksalishida «amaliy hukmdor» malika Gavharshod begimnkng hissasi beqiyos. Bu davrda Hirotida va mamlakatning boshqa viloyatlarida qurilish ishlari avj olgan

⁴⁰ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/temuriy-malikalar/gavhar-shod-begim>

edi. Masjid-madrasalar, xonaqoh, maqbara, dahma, musofirxona, shifoxona, ravot, koʻnrik va sardobalar qurib bitkazildi.

Shohruh Mirzoning Xurosonda hukmronlik qilaboshlagan ilk yillaridayoq, u Hirot qalʼasining janubiy tomonidan madrasa va xonaqoh (1410-1411) bino qildiradi. Aia shundan soʻng Shohruh Mirzo avlodiga mansub shahzodalar va malikalar ham madrasa, masjid, xonaqoh, shifoxona va shunga oʻxshash imoratlar bunyod etish bilan shahar obodonchiligiga oʻz hissalarini qoʻshadilar.

Tabiatan vatanparvar, bilimdon va zukko Gavharshod begim mamlakat ravnaqi yoʻlida tinmay gʻamxoʻrlik qiladi. Uning dasturida madaniy va maʼrifiy hayot birinchi oʻrinda boʻlgan. Shu boisdanmi, farzandlari hamda barcha nabiralari ilm-fan muxlislari boʻlib, hatto gʻazal ham bitganlar.

Gavharshod begim Hirotidagi juda koʻp qurilish ishlariga rahnomalik qildi. Uning oʻzi ham Hirotida ikkita katta madrasa qurdirgan. Gavharshod begimning kundoshi malika Milkat Ogʻo (bu malikaning asli nomi Mulk Ogʻo boʻlib, Amir Temurning ikkinchi oʻgʻli Umar Shayx Mirzoning xotini edi. 1394- yilda Umar Shayx Mirzo vafotidan soʻng, qayinotasi Amir Temurning irodasiga boʻysunib, Shohruh Mirzo nikohiga kirgan) Hirot shaharida bir madrasa, «Dorushshifo» nomli kasalxona, «Dorulhadis» nomli xonaqoh, ikkita hammom va shahardan sakkiz farsax (tosh) chetroqda bitta madrasa, kutubxona va maqbara, shahzoda Alouddavla Mirzo esa bitta kasalxona qurdirgan. Ayni vaqtda, xususiy mulkdor, davlatmand kishilarga xayriya tariqasida qurilishlar bunyod etvgiga ijozat berilgan va ragʻbatlantirib turilgan⁴¹.

1446- yilda qarib qolgan Shohruh Mirzo oʻz nabirasi - Qazvin, Ray va Qum viloyatlarining hukmdori Sulton Muhammad Mirzoga (Boysunqir mirzoning oʻgʻli) qarshi gʻarbga yurish boshlaydi. Bu yurishdan maqsad oʻzboshimcha yosh shahzodaning adabiy berib qoʻyish edi. Oʻz bobosiga qarshi bosh koʻtargan shahzoda Hamadon bilan Isfaxonni bosib olib, Sherozni qamal qilgan edi. Qoʻshinda malika Gavharshod begim va Abdul Latif Mirzo (Ulugʻbek Mirzo

⁴¹ Файзиев Т. Темурий маликалар. - Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1994. – Б. 8.

Ko'ragonning o'g'li) Shohruh Mirzo bilan birga edilar. Shohruh Mirzo G'arbiy Eronda hech qanday qarshilikka uchramadp. Chunki shahzoda Sulton Muhammad Mirzo bobosining kelayotganini eshitgach, Sherozni qamaldan bo'shatib, o'zi toqqa qochib ketgan edi. Shohruh Mirzo Sherozga kirgach, shahzodaning barcha yaqpn kishilarini jazoga hukm qiladi. Gavharshod begimning qat'py talabi bilan bir necha sayyidlar ham qatl etiladilar. Ajablanarli joyi shundaki, o'ta taqvodor, xudojo'y saltanat sohibi Shohruh Mirzo ham xotini Gavharshod begimning irodasiga bo'ysunib, sayyidlarni qatlga hukm qiladi. Sayyidlar ustidan bunday jazo hukmini chiqarishga na Amir Temur va na Ulug'bek Mirzo botina olmas edilar.

Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, sayyidlar Shohruh Mirzodan «adolat yuzasidan taftish o'tkazish» ni yolborib so'raydilar. Ammo Shohruh Mirzo malika Gavharshod begimning xohishini qaytarolmaydi va hukm ijro etiladi. Nihoyat, sayyidlar dor ostida turib, Shohruh Mirzoni «duoyi bad» qiladilar. Binobarin, ko'p o'tmay Shohruh Mirzo avlodi qirilib ketish sababini mazkur sayyidlar qarg'ishiga uchraganligining oqibatidir, deb yozadi Davlatshoh Samarqandiy⁴².

Shohruh Mirzo Sherozdan Hirotga qaytayotganda yo'l asnosida betoblanib, 1447- yil 12- martda vafot etadi. Gavharshod begim qo'shin qo'mondonligini Abdullatif Mirzoga topshiradi. Ammo Hirotga - Alouddavla Mirzoga «poytaxtni mustahkamlash» haqida maxfiy maktub yozib, uni maxsus chopar orqali jo'natadi. Bundan ogoh bo'lgan Abdul Latif Mirzo buvisi Gavharshod begimni mahbuslikda saqlab, Amudaryo tomon yo'l oladi hamda bobosi Shohruh Mirzoning o'limi haqida o'z otasi Ulug'bek Mirzoga xabar yuboradi.

Amakisi Ulug'bek Mirzodan hayiqqan Alouddavla Mirzo o'zini podshoh deb e'lon qilishga jur'at etmaydi va avvalgidek juma kunlari masjidlarda bobosi Shohruh Mirzo nomini xutbaga qo'shib o'qitadi. Biroq, Abdullatif Mirzoning kirdikorlari, ayniqsa buvisi Gavharshod begimga nisbatan qo'llagan jazosini eshitgach, taxtni o'z tasarrufiga kiritadi va xazinadan qo'shinga, qo'shin

⁴² <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/temuriy-malikalar/gavhar-shod-begim>

boshliqlariga in'omlar ulashib, Abdullatif Mirzoga qarshi qo'shin yo'llaydi. 1447 yil 29 aprel shanba kuni Abdul-Latif Mirzo Nishopur yaqinida to'satdan Alouddavla Mirzo qo'shiniga duch kelib, mag'lubiyatga uchraydi va o'zi asir olinadi. Mahbuslikdan ozod qilingan malika Gavharshod begim maxbus Abdullatif Mirzoni o'zi bilan birga olib, Hirot tomon yo'lga tushadi. Malikani Jom shahrining yaqinidagi Sa'dobod mavzeida Alouddavla Mirzo kutib oladi. Abdullatif Mirzoni Hirotga keltirib, Ixtiyoriddin qal'asiga qamab qo'yishadi. Shohruh Mirzoning jasadini esa Gavharshod begim madrasasidagi Boysung'ur maqbarasiga dafn qiladilar. 1447- yilda Ulug'bek Mirzo Hirotni vaqtincha qo'lga kiritganda, otasining jasadini Samarqandga keltirib, Go'ri Amirga dafn etdiradi⁴³.

Shohruh Mirzo vafotidan keyin taxt uchun boshlanib ketgan qonli mojarolar tepasida Gavharshod begim turardi. U nevarasi Alouddavla Mirzoni taxt sohibi qilish uchun makr-hiylalar ishlatga-da, biroq o'z maqsadiga erisholmaydi, qaytangga aka-uka shahzodalar orasida qonli to'qnashuvlarni vujudga keltiradi. 1450- yilda esa taxtni Alouddavlaning ukasi Abulqosim Bobur Mirzo (1422-1457) qo'lga kiritadi, 1457- yilda Abulqosim Bobur Mirzo Mashhadga keladi. Saroyda katta shohona ziyofat beriladi. Bazm asnosida sharob ichib o'tirgan hukmdorning ahvoli o'zgarib, behol yiqiladi. Tabiblar muolajasi foyda bermaydi va u 36 yoshida to'satdan vafot etadi. Shundan so'ng taxt uchun yana o'zaro kurash boshlanadi. Shahzodalarning noittifoqligidan foydalangan Samarqand hukmdori Sulton Abusayid Mirzo (1424-1469) Xurosonni bosib oladi. Sulton Abusayid Mirzo Samarqand taxtini o'zining katta o'g'li Sulton Ahmad Mirzoga (1451 - 1493) berib, Hirotnn o'zining poytaxti deb e'lon qiladi. Bu vaqtda malika Gavharshod begim 80 yoshga yaqinlashib, ancha qarib qolgan edi. Biroq qarib qolgan malika Xuroson taxtidan hali ham voz kechmagan edi. Binobarin, chevarasi Sulton Ibrohim Mirzoni (1440-1460) hukmdor Sulton Abusayid Mirzoga qarshi isyon ko'tarishga undaydi. Malikaning bu harakatidan xabar topgan Sulton Abusayid Mirzo malikani chopib tashlashga farmon beradi. Farmonga muvofiq 1457- yilda

⁴³ Файзиев Т. Темурий маликалар. - Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1994. – Б. 9.

Gavharshod begim chopib o'ldiriladi sa o'zi qurdirgan madrasa yonidagi Boysung'ur dahmasiga dafn etiladi.

Xuroson hukmdori Sulton Xusayn Boyqaro saroyida uning xotini Xadicha begim muhim o`rin tutgan.

Xadicha begim Sulton Husayn Mirzo Boyqaroning suyuqli xotini edi. Xadicha begim 1451- yilda Hirotida tug'ilib, 1457- yilda Sulton Abusayid Mirzo Hiroti olgach, unga hadya etilgan xos kanizaklardan biri edi. Sulton Abusayid Mirzo Xadicha begimni 1465- yilda o'z nikohiga kiritadi. Sulton Abusayid Mirzodan Oqbegim ismli bir qiz ham bo'lgan. 1469- yilda Sulton Abusayid Mirzo Iroqda halokatga uchragach, Hirot taxtiga o'tirgan Sulton Husayn Mirzo Boyqaro marhum Sulton Abusayid Mirzo haramida Xadicha begimni ko'rib, uni sevib qoladi va shar'iy iddasi (uch oy) tugagach, o'z nikohiga kiritadi.

Xadicha begim yosh, go'zal, dimog'dor, yengil tabiat ayol bo'lib, ayni vaqtda tabiatan ichi qoralik va makr-hiylaga moyil edi. Zahiridin Muhammad Bobur Mirzo (1483-1530) Xadicha begim haqida: «O'zini oqila tutar edi, vale beaql va purgo'y (ko'p gapiruvchi, ezma) xotun edi, rofiziya (shiiylik mazhabining bir oqimi) ham ekandur», - deb yozadi. Darhaqiqat, Xadicha begim tez fursatda o'zining jozibali husn-latofati-yu makkorona iltifotlari bilan Sulton Husayn Boyqaroni o'ziga rom qilib, haramda ulug' bekalik o'rnini egallaydi⁴⁴.

Sulton Husayn Boyqaroning xotinlari va xos kanizaklaridan 14 o'g'il va 11 qizi bor edi. Shohg'arib Mirzo (1471 - 1489), Muzaffar Husayn Mirzolar (1473-1509) Xadicha begimdan tug'ilgan edilar. Xadicha begim o'z farzandi - tantiq va shuhratparast Muzaffar Husayn Mirzoni Sultonning barcha o'g'illaridan ustun qo'yishga jon-jahdi ila harakat qilardi. Binobarin, turli makr-hiylalar ishlatib, ota bilan o'g'illar o'rtasida nizo chiqarishga muvaffaq bo'ladi. Bu nizolar ko'pincha qonli jangu jadallar bilan tugardi. Sulton Husayn Boyqaro tobora Xadicha begimning makriga uchib, Muzaffar Husayn Mirzodan bo'lak o'g'illariga unchalik iltifot ko'rsatmas va xavf-xatarda yurardi. Xadicha begim o'g'li Muzaffar Husayn

⁴⁴ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1989. – Б. 152.

Mirzoni ota taxtiga valiahd qilib tayinlatish masalasida xufiyona harakatni boshlab yuboradi. Ammo valiahdlik haqqi taomilga ko'ra, Sultonning katta o'g'li Badiuzzamon Mirzoniki (1458-1511) edi. Garchi Sulton Husayn Boyqaro Badiuzzamon Mirzoni unchalik suymasa-da, har holda uni rozi qilishi lozim edi. Ayni vaqtda, Alisher Navoiy boshliq saroy ahlining ko'pchiligi valiahdlikka Badiuzzamon Mirzoning 11 yashar o'g'li - Mo'min Mirzoni (1486-1497) munosib hisoblar va bu haqda mulohazalarini Sultonga ochiq bildirgan edilar. Tabiiyki, arkoni davlat orasida bo'layotgan bunday mulohazalar Xadicha begimning hasad olovini alangalatmasdan qo'ymasdi⁴⁵.

1497- yil bahorida Sulton Hisorga qarshi yurish boshlaydi. Sultonning farmoniga ko'ra, Astrobodda hukmron bo'lib turgan Badiuzzamon o'z o'rniga o'g'li Muhammad Mo'min Mirzoni qo'yib, o'zi otasining qo'shiniga kelib qo'shiladi. Jang tugagach, Sulton Husayn Boyqaro o'g'li Badiuzzamon Mirzoni Balx viloyatiga, suyakli o'g'li Muzaffar Husayn Mirzoni esa Astrobodga hokim qilib tayinlaydi. Sultonning bu farmoni Badiuzzamon Mirzoning hamiyatiga tegadi. Chunki Astrobodni o'g'li Mo'min Mirzoga in'om qilish taraddudida edi. Binobarin, Badiuzzamon o'z o'g'liga Astrobodni qo'ldan boy bermaslik haqida xabar yuboradi. Bu mojaro Sulton bilan Badiuzzamon Mirzo orasida qonli to'qnashuvga sabab bo'ladi. 1497- yil 2- mayda Badiuzzamon qo'shini tor-mor keltiriladi. Ayni vaqtda Muzaffar Husayn Mirzoning qo'shini Astrobodni zabt etib, Muhammad Mo'min Mirzoni asirga oladi va Hirotga keltirib, Ixtiyoriddin qal'asiga qamaydilar. Ko'pdan beri qulay vaziyatni kutib yotgan Xadicha begim Murg'ob harbiy o'rdagohida vazir Nizom ul-Mulk ishtirokida Sultonning mastligidan foydalanib, Muhammad Mo'min Mirzoni zudlik bilan qatl etish haqidagi farmonga muhr bostirib oladi va o'sha kechasiyoq hukm ijro etiladi⁴⁶.

1506- yil aprelda Sulton Husayn Boyqaro vafot etadi. Xadicha begimning kaltabinlik ila saltanat ishlariga aralashuvi natijasi o'laroq, taxtga ikki shahzoda -

⁴⁵ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/temuriy-malikalar/xadicha-begim>

⁴⁶ <http://betakrorbuxoro.uz/uz/2017/05/04/sulton-husajn-bojqaroning-suyukli-xotini-xadicha-begim-ishlatgan-makr>

Badiuzzamon Mirzo va Muzaffar Husayn Mirzo o'tiradilar. Shayboniyxon Xurosonga hujum boshlaganda, ikki shahzoda ikki mavzeda - Badiuzzamon Qorarabotda, Muzaffar Husayn Mirzo Tarnobda turardnlar. Birinchi zarbadayoq ikki shahzoda ikki tarafga - Badiuzzamon Qandahor orqali Turkiyaga, Muzaffar Husayn Mirzo Astrobodga qochadilar. Hirot mudofasi esa Xadicha begim boshliq uch-to'rtta iste'dodsiz a'yonlaru xotin-qizlarga qolgan edi. Shayboniyxon Hirotni osongina qo'lga kiritadi. Xadicha begim Hirotidan tashqariga chiqmay, uy mahbusligida yashaydi. 1509- yili o'g'li Muzaffar Husayn Mirzoning Astrobodda ekanligni eshitgach, Shayboniyxon tarafidan Hirot dorug'asi (hokimi) qilib tayinlangan Jon Vafo Mirzodan ruxsat olib, o'g'lini ko'rgani Astrobodga boradi. Xadicha begim Astrobodga yetib borganda, o'g'li Muzaffar Husayn Mirzo tuzalmaydigan kasalga muhtalo bo'lib, o'lim to'shagida yotardi. Qo'p o'tmay - vafot etadi. Xadicha begim o'g'lining ta'ziasini o'tkazgach, yana Xirotga qaytib keladi.

II BOB. BOBURIYLAR SALTANATIDA AYOLLARNING MAMLAKAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNINI VA ROLI

2.1. Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan Hindistonda markazlashgan davlatga asos solinishi, boburiylar davlatining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti

Boburning otasi — Umarshayx Mirzo Farg'ona viloyati hokimi, onasi — Qutlug' Nigorxonim Mo'g'uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Boburning onasi o'qimishli va oqila ayol bo'lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko'mak bergan, harbiy yurishlarida unga hamrohlik qilgan. Umarshayx Mirzo xonadoni poytaxt Andijonning arki ichida yashar edi. Hokim yoz oylari Sirdaryo bo'yida, Axsida, yilning qolgan faslini Andijonda o'tkazardi. Boburning yoshligi Andijonda o'tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozilu ulamolar ustozligida harbiy ta'lim, fiqxiy ilmi, arab va fors tillarini o'rganadi, ko'plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilmfanga, she'riyatga qiziqqa boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan «Bobur» («Sher») laqabini oladi⁴⁷.

Bobur otasi yo'lidan borib, mashhur sufiy — Xoja Ahrorga ixlos qo'yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e'tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, «Boburnoma» asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va chorasizliqdan xalos etganini, eng og'ir sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta'kidlaydi. Otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo'lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o'tiradi (1494 yil iyun)⁴⁸.

Movarounnahr XV asr oxirida o'zaro nizolashaetgan temuriy shahzodalar yoki mulkdor zodagonlar boshchilik qilib turgan, deyarli mustaqil bo'lib olgan ko'pdanko'p viloyatlarga parchalanib ketgan edi. Movarounnahr taxti uchun kurash avjga chiqqan, turli siyosiy fitnalar uyushtirilmoqda edi. Buning ustiga Umarshayx Mirzoga tobe bir necha bek va hokimlar yosh hukmdorga (Boburga)

⁴⁷ Махмуд Л. Бобурни тушуниш бахти. — Т.: Фан ва технология, 2009. — Б. 56.

⁴⁸ Файзиев Т. Захриддин Мухаммад Бобур ва унинг авлодлари. — Т.: Ёзувчи, 1996. — Б.6.

buysunishdan bosh tortadilar. Ularning ayrimlari Boburning ukalarini yoqlasa, ba'zilar mustaqillik da'vosini qiladi, yana boshqa birlari Boburga raqib, boshqalari amaki, tog'alariga qo'shilib, uni jismonan yo'qotish payiga tushadi⁴⁹.

O'z amakisi va tog'asi bo'lmish Sulton Ahmad Mirzo bilan Sulton Mahmudxon xurujlarini daf qilgan Bobur hukmronligining dastlabki 2-3 yilida mavqeini mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan o'zaro munosabatni yaxshilash, qo'shinni tartibga keltirish, davlat ishlarida intizom o'rnatish kabi muhim choratadbirlarni amalga oshiradi. Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo'lgan Samarqandni egallash va Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni saqlash, mustahkamlash hamda Amir Temur saltanatini qayta tiklashdan iborat edi. Bu paytda, qisqa muddat ichida Samarqand taxtiga uchinchi hukmdor kelgan edi. Sulton Ahmad Mirzo vafoti (1494- yil iyul) dan keyin taxtga o'tirgan Sulton Mahmud Mirzo Samarqandda davlatni 5-6 oydan ortiq idora etmadi — qisqa muddatli kasallikdan so'ng 43 yoshida vafot etdi. Uning o'rniga Buxoroda hokim bo'lgan o'g'li Boysung'ur o'tiradi. 1495-1496 yillarda Bobur Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi⁵⁰.

1497- yil kuzida u Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va 7 oylik qamaldan so'ng Samarqandni egallaydi, Boysung'ur Qunduzga qochadi. Shahar qamal tufayli nihoyatda og'ir kunlarni boshidan kechirmoqtsa edi. Hatto ekkulik don ham topish mushkul edi. Bobur qo'shinni ta'minlashda katta qiyinchiliklarga duch keldi. Navkarlaridan ayrimlari Andijon va Axsi tomon qochib ketadilar. Buning ustiga Andijonda qolgan ayrim beklar Boburdan yuz o'girib, uning ukasi Jahongir Mirzo tarafiga o'tadilar. Andijondan ko'ngli notinch bo'lgan va iqtisodiy qiyinchiliklarga uchragan, ayni zamonda og'ir xastalikni boshidan kechirgan Bobur Samarqandni yuz kun idora etgandan so'ng, uni tark etishga qaror kiladi. Ammo Xo'jandga yetganda Andijon ham qo'ldan ketib, muxoliflar ixtiyoriga

⁴⁹ Маҳмуд Л. Бобурни тушуниш бахти. — Т.: Фан ва технология, 2009. — Б. 32.

⁵⁰ Нуриддинов М. Бобурийлар сулоласи. —Т.: Фан, 1994. — Б. 12.

o'tganini eshitadi. Boburning Toshkent hokimi, tog'asi Mahmudxon ko'magida Andijonni qayta egallashga urinishi natija bermaydi, Bu muvaffaqiyatsizlik Bobur qo'shiniga salbiy ta'sir etib, ko'pchilik bek, navkarlar (700-800 kishi) Boburni tark etadi. O'ziga sodiq kishilar (200-300) bilan qolgan Bobur ma'lum muddat Xo'jandda turgach, Toshkentga - Mahmudxon huzuriga kelib, Andijonni qaytarib olish rejasini tuza boshlaydi. Ma'lum muddat o'tgach, Bobur Xo'jandga qaytadi, ko'p o'tmay, Marg'ilonni qo'lga kiritadi hamda Andijonni egallash tadbirlarini ko'radi. Nihoyat, 2 yildan so'ng (1498- yil iyun) uni qayta qo'lga kiritadi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan sulh tuzib, uning ixtiyorida «Xo'jand suvining Axxi tarafi viloyatlarini...» qoldiradi, Andijon tarafi viloyatlarini o'z tasarrufiga oladi. Temuriylarning o'zaro urushlari kuchaygan kezlarda Shayboniyxon Movarounnahrni istilo qilishga kirishadi⁵¹.

U 1499- yil Jizzax va Samarqand orqali Qarshi va Shahrisabzgacha bosib boradi, katta o'lja bilan Dashti Qipchoqqa qaytadi. Oradan ko'p o'tmay, katta kuch bilan Movarounnahrqa qaytgan Shayboniyxon Buxoro va Qorako'lni egallaydi (1499), Sulton Ali Mirzo kalabinlik bilan Samarqandni Shayboniyxonga jangsiz topshiradi (1500). Biroq, shahar aholisi va zodagonlarining ma'lum qismi temuriylar hukmdorligini tiklash tarafdori edi. Ular Farg'ona hokimi Boburga maktub yo'llab, Samarqandni ishg'ol qilishga da'vat etganlar. Bobur 1500 yil kech kuzida o'z qo'shini (240 kishi) bilan Samarqandga yetib kelgach, aholi unga peshvoz chiqib, shahar darvozalarini ochib beradi. Shayboniyxonning shahar ximoyasi uchun qoldirgan 600 nafar askari qirib tashlanadi. Shayboniyxon Buxoroga chekinadi. Qisqa vaqt ichida Samarqandning barcha tumanlari, Qarshi va G'uzor shaharlarida Bobur hokimligi e'tirof etiladi⁵².

Ammo shaharda oziq-ovqat zaxiralari tugab, ocharchilik boshlangan edi. Bundan xabar topgan Shayboniyxon katta kuch to'plab, yana Samarqandga yurish boshlaydi. 1501 yil aprelda Zarafshon bo'yidagi Saripul qishlog'i yaqinida bo'lgan

⁵¹ Сотимов Ф. Бобурийзодалар. – Т.: Маънавият, 2003. – Б. 14.

⁵² Файзиев Т. Заҳрирдин Муҳаммад Бобур ва унинг авлодлари. – Т.: Ёзувчи, 1996. – Б.10.

jangda Bobur qo'shinlari yengiladi. Bobur Samarqandga chekinadi. Shahar yana qamal qilinib, u to'rt oy davom etadi. Qamalda qolgan shahar aholisining ochlikdan tinkasi quriydi, Bobur 1501- yilning 2-yarmida noilojlikdan Samarqandni tark etib, Toshkentga, Mahmudxon huzuriga yo'l oladi⁵³.

Bobur Temuriylar saltanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun astoydil harakat qilib, Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida muttasil kurash olib borsada, ammo mamlakatda hukm surgan og'ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida maqsadiga erisha olmaydi. 1503 yili Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo'shini Shayboniyxon tomonidan Sirdaryo bo'yida tormor qilinadi. Bobur Samarqand taxti uchun kurashayotgan paytda Andijonni Sulton Ahmad Tanbal egallab oladi⁵⁴.

1501-1504 yillarda Bobur Farg'ona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir mirzolarga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Temuriylarning to'xtovsiz janglari va og'ir soliqlaridan toliqqan xalq Boburni qo'llamadi va u Movarounnahrni tark etishga (1504- yil iyun) majbur buladi⁵⁵.

Bobur 200-300 navkari bilan Hisor tog'lari orqali Afg'onistonga o'tadi va u yerdagi ichki nizolardan foydalanib G'azna va Kobulni egallaydi. Bobur Kobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi, qo'shinni tartibga keltiradi, qattiq ichki intizom o'rnatadi. Kobulga, umuman Afg'onistonga Bobur o'z yurti kabi qaradi, qurilish, obodonlashtirish, kasbu hunar va qishloq xo'jaligini rivojlantirish ishlarini boshlab yuboradi. «Bog'i Shaxroro», «Bog'i Jahonoro», «O'rtabog'», «Bog'i vafo» va «Bog'i Bobur» kabi oromgoxlar tashkil etdi. Shahar ichidagi Bolo Hisor qal'asini o'z qarorgohiga aylantirib, uni qayta ta'mirlatdi, yangi imoratlar qurdirdi va oilasi bilan shu qal'ada yashadi. Uning Humoyun, Gulbadanbegim, Komron va Hindol ismli farzandlari shu yerda tug'iladi. 1506- yil

⁵³ Файзиев Т. Захириддин Мухаммад Бобур ва унинг авлодлари. – Т.: Ёзувчи, 1996. – Б.14.

⁵⁴ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/allomalar/zahiriddin-muhammad-bobur-1483-1530>

⁵⁵ Маҳмуд Л. Бобурни тушуниш бахти. – Т.: Фан ва технология, 2009. – Б. 68.

bahorda vafot etgan Qutlug' Nigorxonim Mirzo Ulug'bek shu yerda bunyod ettirgan «Bog'i Navro'ziy»ga dafn etiladi⁵⁶.

Bobur Afg'onistonda bir fotih sifatida emas, balki shu yurt, el obodonligi va ravnaqi uchun jon kuydirgan tadbirli hukmron sifatida qizg'in faoliyat ko'rsatdi, uning manfaatlari yo'lida odilona va oqilona ish tutdi. Afg'onistondagi amaliy faoliyatiga ko'ra, Bobur butun Xuroson va Movarounnahrda qudratli davlat boshlig'i va muzaffar sarkarda sifatida katga obro' orttira bordi, mintaqadagi siyosiy hayot e'tiborli o'ringa ko'tarildi. Shayboniylarning tobora kuchayib borayotgan yurishiga qarshi birgalikda chora ko'rish masalasida Sulton Husayn Boyqaro barcha temuriy hukmdorlar qatorida Boburni ham maslahat yig'iniga maxsus taklif etishi ana shunday yuksak nufuzni ko'rsatuvchi dalildir. Bobur shu taklif bo'yicha Hirotga o'tlanadi. Husayn Boyqaroning to'satdan vafot etishiga (1506) qaramay, u Hirotga boradi va temuriy hukmdorlar bilan uchrashib muzokaralar o'tkazadi. Temuriy hukmdorlarning birlashib Shayboniylar qo'shinlariga to'siq qo'yish rejalari amalga oshmaydi va tez orada birinketin mag'lubiyatga uchrab, saltanatni batamom qo'ldan chiqaradilar⁵⁷.

1507- yil boshlarida Bobur Hindistonga yurish boshlaydi. Ammo, bu urinishi muvaffaqiyatsiz tugab, yana poytaxt Kobulga qaytadi. Bobur Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat va urush harakatlarini kuzatib boradi, o'z qo'shinlarini doimo shay tutadi. Shayboniylar Xurosonning yirik markazlarini qo'lga kiritgach, Eronni zabt etish uchun yurish boshlaydi. Ammo, Eron shohi Ismoil Safaviy bilan qattiq to'qnashuvda (1510) yengiladi, o'zi ham Marvda halok bo'ladi⁵⁸.

Shoh Ismoil Xuroson va Movarounnahrda qo'shin kiritib shayboniylarga ketma-ket shikast yetkaza boshlaydi. Bobur shoh Ismoil bilan harbiy-siyosiy ittifoq tuzib, 1511- yil bahorida Hisorni, yozida Buxoroni, okt. boshida esa Samarqandni

⁵⁶ Нуриддинов М. Бобурийлар сулоласи. –Т.: Фан, 1994. – Б. 14.

⁵⁷ Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Т.: Маънавият. 1999. – Б. 17.

⁵⁸ Файзиев Т. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг авлодлари. – Т.: Ёзувчи, 1996. – Б.17.

yana qo‘lga kiritadi. Boburning shia mazhabidagi eroniylar ra‘yi bilan ish tutishi aholida norozilik tug‘diradi. 1512- yil 28- aprelda Ko‘li malik jangiaa Ubaydulla Sulton boshliq shayboniylardan yengilgan Bobur Hisor tomon ketadi. 1512- yil kuzida Bobur shoh Ismoil yuborgan Najmi Soniy laqabli lashkarboshi bilan Balxda uchrashib, Amudaryodan kechib o‘tib, avval Huzar (G‘uzor) qal‘asini oladi, so‘ng Qarshiga yurish qiladi, shahar uzoq muddatli qamaldan so‘ng taslim bo‘ladi, shahar himoyachilari qattiq jazolanadi⁵⁹.

1512- yil 24- noyabrda G‘ijduvon jangila Boburshayboniylardan yana yengilib, Kobulga qaytishga majbur bo‘ladi. Bobur Movarounnahrni egallash ilinjidan uzilkesil umidini uzadi va butun e‘tiborini Hindistonga qaratadi. 1519- yil bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabt etish rejalarini amalga oshirishga kirishadi va keyingi 5-6 yil davomida bir necha yurishlar uyushtiradi. Nihoyat, 1526- yil aprelda Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning yuz ming kishilik qo‘shinini 12 minglik askari bilan tormor qiladi hamda Dehlini egallaydi. Oradan ko‘p o‘tmay, ikkinchi yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo‘lgan qismini o‘ziga bo‘ysundiradi. Agrani o‘ziga poytaxt sifatida tanlagan Bobur katta qurilish va obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi. Shu tariqa Bobur Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukm surgan qudratli boburiylar sulolasiga asos soladi. Bobur Hindistonda ham, xuddi Afg‘onistonda bo‘lganidek, ko‘plab ijtimoiy xayrli ishlarni amalga oshirdi, mamlakat taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Tarqoqlik va parokandalikka, o‘zaro ichki nizo, qirg‘inlarga barham berib, viloyatlarni birlashtirdi, markazlashgan davlatni mustahkamlash va yurtni obodonlashtirishga, ilmu hunar va dehqonchilikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratdi. Qurilish ishlariga boshchilik qildi⁶⁰.

Boburning o‘z guvoxligiga ko‘ra, shoir sifatida ijodiy faoliyati Samarqandni ikkinchi marta egallagan vaqgda boshlangan; «Ul fursatlarda birorikkirar bayt

⁵⁹ Сотимов F. Бобурийзодалар. – Т.: Маънавият, 2003. – Б. 17.

⁶⁰ Нуриддинов М. Бобурийлар сулоласи. –Т.: Фан, 1994. – Б. 16.

aytur edim», deb yozadi u. Bobur Samarqanddaligining ilk oylarida Alisher Navoiy tashabbusi bilan ular o'rtasida yozishma boshlanadi. Bobur atrofida ijodkorlar to'plana boshlashi ham shu yillarga to'g'ri keladi. Jumladan, Binoiy, Abulbaraka va Bobur o'rtasidagi ruboiy mushoirasi Samarqanddagi qizg'in adabiy hayotdan darak beradi. Umuman, davlat arbobi va ko'p vaqti jangu jadallarda o'tgan sarkarda sifatida ijtimoiy faoliyatining eng qizg'in davrida ham, shaxsiy hayoti va davlati nihoyatda murakkab va xatarli sharoitda qolgan chog'larida ham Bobur ijodiy ishga vaqt topa bilgan, ilm, san'at va ijod ahlini o'z atrofiga to'plab, homiylik qilgan, ularni rag'batlantirgan.

O'tmish adabiyot va tarix, musiqa va san'atdan yaxshi xabardor bo'lgan, diniy ta'limotga chin ixlos qo'ygan Bobur har doim olimu fozillar davrasida bo'ldi, xususan ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko'rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirib turdi. Ijod va san'at ahliga bunday mehrli munosabat aslo bejiz bo'lmagan. Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug'ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to'xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi⁶¹.

Bobur 18-19 yoshlarida ruboiy va g'azallar yoza boshlagan. Uning «Topmadim» radifli g'azali va «Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi» misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi o'sha yillardagi hayoti bilan bog'liq. Boburning ulkan san'atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko'tara oladi va natijada asarlarida olg'a surilgan g'oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi. Bobur ijodida, xususan, she'riyatida kindik qoni to'kilgan ona yurtini dildildan qo'msash, uning tuprog'iga talpinish, g'ariblik azoblaridan o'tli hasrat, yoru diyor soginchi va visol ilinji, takdir zarbalari va turmush uqubatlari, zamona nosozliklaridan nola badiiy tahlil etiladi⁶².

⁶¹ Махмуд Л. Бобурни тушуниш бахти. – Т.: Фан ва технология, 2009. – Б. 61.

⁶² Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Т.: Маънавият. 1999. – Б. 27.

Bobur ijodida ishqmuhabbat, sevgisadoqat, visol va hijron mavzui ham salmoqli o‘rin tutadi. Uning gazal va ruboiylarida, tuyuq va masnaviylarida ma’shuqaning maftunkor go‘zalligi, beqiyos husnu latofati, sharqona odobu axloqi, nozu karashmasi yengil va o‘ynoqi, musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi⁶³.

Boburning uz she’riy asarlarini to‘plab, devon holiga keltirgan sanani ko‘rsatuvchi aniqtarixiy ma’lumotlar ma’lum emas. Ammo «Boburnoma»ning 1518-1519- yillar voqealari bayoniga bag‘ishlangan faslida Bobur devonini Kobuldan Samarqandga yuborganligi to‘g‘risida so‘z boradi. Demak, shu yillarda uning devoniga tartib berilgan va mazkur devon Movarounnahrda ham tarqalgan. Hozirda uning 119 g‘azali, bir masnu she’ri, 209 ruboiysi, 10 dan optik tuyuq va qit’alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan. Hindiston yurishlari davri (1521)da Bobur «Mubayyin» asarini yaratdi. Masnaviy tarzida yozilgan, islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag‘ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlar ham jamlangan. Valiahd Humoyun va Komron Mirzolarga dasturulamal sifatida mo‘ljallangan «Mubayyin»da, ayni zamonda, namoz, zakot va haj ziyorati to‘g‘risida ham shar’iy mezonlar bayon qilingan. Shu yillarda Bobur Sharq she’riyatining asosiy masalalaridan biri aruz vazni, uning nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy risolasini yakunlaydi. Bobur nomini dunyoga mashhur qilgan shoh asari «Boburnoma» ustidagi ijodiy ishini 1518-1519- yillarda boshlagan⁶⁴.

Boburning yuqorida keltirilgan asarlaridan tashqari, «Xatti Boburiy», shuningdek musiqa san’ati va harb ishlariga maxsus bag‘ishlangan qator risolalari ham bo‘lgan. Ammo keyingi ikki asar matni hanuz topilgan emas. «Xatti Boburiy»da muallif arab alifbosini taxrir etib, yozuvni soddalashtirish va

⁶³ Файзиев Т. Захириддин Мухаммад Бобур ва унинг авлодлари. – Т.: Ёзувчи, 1996. – Б.19.

⁶⁴ Нуриддинов М. Бобурийлар сулоласи. –Т.: Фан, 1994. – Б. 21.

osonlashtirish maqsadida uni turkiy til va talaffuz mezonlariga moslashtirgan. 1526- yil 21- dekabrda Boburga qarshi suiqasd uyushtiriladi. Mahv etilgan Ibrohim Lo'diyning onasi oshpazlar bilan til biriktirib, uning ovqatiga zahar qo'shtiradi. Shuning asoratimi yoki ko'p yillik mashaqqatli va qo'nimsiz hayot ta'sirimi, har holda keyingi yillarda Bobur tez-tez kasalga chalinib turadi⁶⁵.

1527- yil oktabrda Bobur yana xastalikka uchragach, umrining oxirlab qolganini his etadi. Shunda Bobur o'zi e'tiqod qo'ygan Xoja Ahror Valiy ruhidan najot tilab, ixlos bilan uning nasrda bitilgan «Volidiya» asarini she'riy tarjima qiladi. Boburning mohir tarjimon sifatidagi qobiliyati namoyon bo'lgan 243 baytli bu asar katta ijodiy ilhom bilan juda qisqa muddatda yakunlangan. Boburning o'z e'tiroficha, tarjima tugashi hamonoq batamom sog'ayib ketgan. Bu yillarda u «Boburnoma» fasllari ustida ishlashni davom ettirdi, yangiyangi g'azalrubiylar yaratdi, o'z iborasi bilan aytganda, «Hindistong'a kelgali aytqon ash'orni» tartibga solib, shuningdek, «Volidiya» tarjimasini, «Xatti Boburiy» bilan bitilgan namuna va qit'alarni Movarounnahr va Afg'onistonga, Xumoyun, Xoja Kalon, Hindolga yubordi. Humoyun Mirzoga atalgan ijtimoiyaxloqiy masalalarni tahlil etuvchi mashhur maktubi ham Bobur ijodiy faoliyatining yorqin qirralaridan biri bo'ldi. Bir necha muddat oldin podsholikni Humoyunga topshirgan Bobur 47 yoshida o'zi asos solgan saltanat poytaxti Agrada vafot etdi va o'sha yerda dafn etildi, keyinchalik (1539), vasiyatiga muvofiq xoki Kobulga keltirilib, o'zi bunyod ettirgan «Bog'i Bobur»ga qo'yildi⁶⁶.

Bobur O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'z yurtida haqiqiy qadrqimmattopdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko'ra 1993-yilda Bobur tavalludining 510 yilligi tantanali nishonlandi. Andijon sh.da Bobur nomida unt, teatr, kutubxona, milliy bog' («Bog'i Bobur») bor. Bobur milliy bog'i majmuasitsa «Bobur va jahon madaniyati» muzeyi, shoirning ramziy qabrmaqbarasi bunyod etilgan. Shahar markazida (muallifi Ravshan Mirojijev) va

⁶⁵ Маҳмуд Л. Бобурни тушуниш бахти. – Т.: Фан ва технология, 2009. – Б. 66.

⁶⁶ Файзиев Т. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг авлодлари. – Т.: Ёзувчи, 1996. – Б.22.

Bobur bog‘idagi yodgorlik majmuida (muallifi Qodirjon Salohiddinov) shoirga haykal o‘rnatildi. Andijondagi markaziy ko‘chalardan biriga, shuningdek Toshkentdagi istirohat bog‘i va ko‘chaga, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi istirohat bog‘iga Bobur nomi berildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur nomidagi medali ta‘sis etildi. Sharqshunos olim Ubaydulla Karimov bu medalning birinchi sovrindori bo‘ldi⁶⁷.

Andijonlik tabiatshunos olim Zokirjon Mashrabov rahbarlik qiladigan Xalqaro Bobur jamg‘armasi (1993.23.12) Bobur ijodini o‘rganishda katta ishlarni amalga oshirdi. Jamg‘armaning ilmiy ekspeditsiyasi 10 dan ortiq Sharq mamlakatlari bo‘ylab avtomobilda ilmiy safarlar uyushtirib, 200 ming km dan ortiq masofani bosib o‘tdi, Bobur va boburiylar qadamjolari, ularning ilmiy merosiga oid yangi ma‘lumotlar to‘plab, ularni ilmiy iste‘molga kiritdi. Mazkur ma‘lumotlar asosida 10 dan ziyod ilmiy, hujjatli, badiiy asarlar (Z. Mashrabov, S. Shokarimov: «Asrlarni bo‘ylagan Bobur»; S. Jalilov: «Boburning Farg‘ona davlati», «Bobur va Andijon»; Qamchibek Kenja: «Hind sorig‘a»; X. Sultonov: «Boburning tushlari», «Boburiynoma»; R. Shamsuddinov: «Boburiylar izidan», «Boburiylar sulolasi»; T. Nizom: «Uch so‘z»), 10 ga yaqin hujjatli, videofilmlar (F. Rasulov: «Bobur izidan», «Muqaddas qadamjolar»; T. Ro‘ziyev: «Bobur salomi», «Bobur nomidagi Xalqaro ilmiy ekspeditsiya»; T. Hamidov: «Iftixor» va h.k.) yaratildi⁶⁸.

Jamg‘armaning Lohur (Pokiston), Haydarobod (Hindiston), Abu Dabi (Birlashgan Arab Amirliklari), Moskva (RF), O‘sh (Qirg‘iziston), Toshkent, Namangan (O‘zbekiston) shaharlarida bo‘limlari mavjud. 1998- yil Jamg‘armaning boburshunoslik sohasidagi xalqaro mukofotlari ilk marta Pirmqul Qodirov, Sabohat Azimjonova, G‘aybulloh asSalom, Ne‘matilla Otajonov, Xayriddin Sultonov, Eyje Mano (Yaponiya), Muhammadali Abduqunduzov, Maqsud Yunusov, Shafiqa Yorqin (Afg‘oniston), Ma‘murjon To‘xtasinov, Ravshan

⁶⁷ Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Т.: Маънавият. 1999. – Б. 25.

⁶⁸ Нуриддинов М. Бобурийлар сулоласи. –Т.: Фан, 1994. – Б. 19.

Mirtojiyev, Majid Tursunov, Rahmonjon Azimov, Muhammadjon Mirzaevga berildi.

2.2. Boburiylar saltanatida malika ayollarning davlat boshqaruvi va madaniy hayoti tutgan o`rni

Boburiylar davlatida Zahiriddin Muhammad Boburning singlisi Xonzoda begim muhim rol o`ynagan.

Xonzoda begim Umar Shayx Mirzoning (1456-1494) to`ng`ich farzandi, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoning opasi edi. U 1478- yilda Andijonda tug`ilgan. Uning onasi - Qutlug` Nigor xonim Toshkent xoni Yunusxonning qizi edi⁶⁹.

Tarixiy manbalarning shohidlik berishicha, Xonzoda begim did-farosatli, o`tkir zehqli va aql-zakovat sohibasi bo`lgan. Xonzoda begim ayni balog`at yoshiga yetganda otasi Umar Shayx Mirzo tasodifan jardan yiqilib, olamdan o`tadi. Ota taxtiga o`tirgan 12 yoshli Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoning qismatida darbadarlik davri boshlanadi. Yosh Bobur Mirzoda bobokaloni Amir Temur taxtini egallash havasi uyg`onib, Samarqandga bir necha harbiy yurishlar qiladi. Nihoyat, 1501- yili Samarqandni qo`lga kiritishga muvaffaq bo`ladi. Ammo ko`p o`tmay Shayboniixon qo`shin tortib kelib, Samarqandni qamal qiladi. Qamal ko`pga cho`zilib, shaharda dahshatli ocharchilik va o`lim avjiga chiqadi. Bobur Mirzoning ko`pgina odamlari shaharni tashlab qochadilar. Bobur Mirzo nihoyat darajada kuchsizlanib, hatto qamalni yorib chiqib ketish imkoniyatiga qodir bo`lmay qoladi. Ana shunday og`ir vaziyatda Shayboniixon Bobur Mirzoga sulh taklif qiladi<sup>70</sup>. Keyinchalik ana shu voqeani Bobur Mirzo o`zining mashhur «Voqeanoma» («Boburnoma») asarida quyidagicha tasvirlaydi: «Bu mahalda Shayboniixon sulh so`zini aroga soldi. Agar bir tarafdin umidvorlik bo`lsa edi, yo zahira bo`lsa, sulh so`ziga kim quloq solar edi. Zarurat bo`ldi, sulhgina qilib, kechadin ikki pahr bo`la

⁶⁹ Сотимов F. Бобурийзодалар. – Т.: Маънавият, 2003. – Б. 24.

⁷⁰ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/allomalar/zahiriddin-muhammad-bobur-1483-1530>

yovushib edikim, Shayxzoda darvozasidan chiqildi. Volidam xonimni olib chiqdim. Yana ikki xotin kishi chiqdi: biri Bichka xalifa edi, biri Minglik ko'galtosh edi. Mening egachim Xonzoda begim ushbu chiqqanda Shayboniixonning ilkiga tushdi»⁷¹.

Ammo bu voqea aslida boshqacharoq bo'lgan. Shayboniixon Bobur Mirzoga sulh taklif qilishi bilan birga, Xonzoda begimni o'ziga xotinlikka so'ragan. Agar Bobur Mirzo shunga rozilik bersa, u holda o'z haramini Samarqanddan salomat olib chiqib ketishiga imkoniyat yaratib berajagini aytgan.

Bu voqeani Bobur Mirzoning qizi — Gulbadan begim, o'zining «Humoyunnoma» nomli asarida quyidagicha tasvirlaydi: «Ana shunday vaqtda Shohibek (Shayboniixon)xon «agar o'z egachingiz Xoizoda begimni menga xotinlikka bersangiz, oramizda sulh tuziladi va hamjihatlik aloqalari o'rnatiladi»,— deb aytgizib yubordi. Oxir Xonzoda begimni o'sha xonga berib, o'zlarining qaytishlarn zarur bo'ldi». Gulbadan begimning bu fikrini «Tarixi Rashidiy» asarining muallifi— Haydar Mirzo ham tasdiqlab, «uning qarshilik ko'rsatishga hech chorasi qolmay, Shayboniixon bilan sulh tuzib, o'z egachisi Xonzoda begimni unga xotinlikka berdi»,— deb yozadi⁷².

Shunday qilib, Xonzoda begim Shayboniixon nikohiga kiradi va undan bir o'g'il ko'radi. Ismini Xurrambek deb ataydilar,

Shayboniixon qatlidan so'ng Xonzoda begim ukasi Zahiriddin Muhammad Boburshohning saroyi — Kobulga qaytib keladi. Ko'p o'tmay o'g'li Xurrambek ham vafot etadi. Xonzoda begim o'zining aql-idrokligi va tadbirkorligi natijasi o'laroq, saroy malikalari orasida yuksak e'tiborga ega bo'ladi. Xonzoda begim Boburshoh va uning taxt vorisi Humoyun shoh saroyida maslahatchi vazifasini bajargan⁷³.

⁷¹ Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. — Т.: Маънавият. 1999. — Б. 30.

⁷² Сотимов Ғ. Бобурийзодалар. — Т.: Маънавият, 2003. — Б. 27.

⁷³ Файзиев Т. Заҳриддин Муҳаммад Бобур ва унинг авлодлари. — Т.: Ёзувчи, 1996. — Б.24.

1544- yili Xonzoda begim Kobulhaq degan joyda olamdan o'tadi. Oradan uch oy o'tgach, uning xokini Kobulga keltirib, Boburshoh maqbarasiga dafn qiladilar.

Boburiylar saltanatida Zahiriddin Muhammad Boburning qizi Gulbadanbegim katta mavqe va obro'ga ega shaxslardan biri bo'lgan.

Gulbadan begim Zahiriddin Muhammad Boburshohning Dildor begim nomli xotinidan tug'ilgan uchinchi qizidir. Gulbadan begim 1523- yili Kobulda tug'ilgan. Uning onasi Dildor begimning haqiqiy ismi — Soliha Sulton begim bo'lib, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoning amakisi Sulton Mahmud Mirzoning qizi edi. Gulbadan begim otasn Bobur podshohning farmoniga ko'ra katta onasi, ya'ni Humoyun Mirzoning onasi — Mohim begim qo'lida tarbiyalanadi. Mohim begim Bobur podshohning eng sevikli katta xotini, hukmdorning xotinlari orasida eng oqila va bilimdoni edi.

Binobarin, 1525- yili Gulbadan begimni Mohim begim o'z tarbiyasiga oladi. Gulbadan begim har ikkala onasini ham samimiy e'zozlagan. U o'z asarida onasini «Dildor begim» deb, Mohim begimni esa «onam hazratlari» deb tilga oladi⁷⁴.

Gulbadan begim 1529- yilgacha Kobulda yashaydi. Bobur Hindistonni qo'lga kiritgach, Mohim begim bilan birga podshoh otasining huzuriga - Agraga boradi. Otasi Bobur vafotidan so'ng, akasi Humoyun podshoh saroyida yashaydi. 1539- yilda Gulbadan begimni Xizr Xo'jaxonga turmushga chiqaradilar. U bir o'g'il ko'radi, ismini Saodatyor deb ataydilar. 1556- yili Humoyun podshoh vafotidan so'ng saltanat taxtiga uning o'g'li Jaloliddin Akbarshoh (1542-1605) o'tirgach, shohning onasi Hamida bonu bilan Gulbadan begim saroyga - Dehliga qaytib keladilar. Ana shundan so'ng, Gulbadan begim to umrining oxirigacha jiyani Akbar podshoh saroyida yashaydi⁷⁵.

Gulbadan begim o'z zamonasining oqila, donishmand ayollaridan edi. U jiyani Jaloliddin Akbar podshohning «Firdavs makon va jannat oshyon Hazrat

⁷⁴ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/temuriy-malikalar/gulbadan-begim>

⁷⁵ Нуриддинов М. Бобурийлар сулоласи. —Т.: Фан, 1994. — Б. 22.

haqidagi voqealardan nimaiki bilsangiz, yozingiz», - degan ishorasiga muvofiq, «Humoyunnoma» nomli ajoyib va muhim tarixiy asarini yozishga kirishadi. «Humoyunnoma» Bobur podshoh bilan Humoyun podshohning hayot tarzi va sarguzashtlarining muxtasar tarixi bo'lib, mantiqan «Boburnoma»ning davomidir. Bu asarning muhimligi yana shundaki, «Boburnoma» asaridagi ayrim voqealarning kelib chiqish sabablari mukammal ochib beriladi.

Gulbadan begim o'z asarida saroy ahlining hayot tarzi, shuningdek, tarixiy asarlarda uchramaydigan Bobur podshoh xonadonining nozik xususiyatlari, oilaviy sharoitlari, to'y va aza bilan bog'liq udumlar, uy-ro'zg'or asboblari, kiyim-kechak turlari kabi jihozlar haqida mufassal hikoya qiladi. Ammo, afsuski, asarning oxirgi qismi o'sha zamonning suronli yillarida yo'qolib ketgan⁷⁶.

Mir Mahdi Mirzoning «Tazkirat ul-havotin» asarida keltirilgan «Sevgisiz hayotda ma'no yo'q» mazmunidagi ikki baytiga qaraganda, Gulbadan begimning g'azaliyotdan ham xabari bo'lgan.

«Akbarнома» asarining muallifi Abul Fazlning bergan ma'lumotiga qaraganda, 1575- yilda Gulbadan begim Ka'batullo ziyoratiga jo'nab ketadi va 1582- yilda ko'p qiyinchiliklar bilan ziyoratgohdan qaytib keladi. Abul Fazlning yozishicha, Gulbadan begim 1603- yilda 80- yoshida vafot etadi. Akbar podshoh uni katta hurmat va ehtirom bilan dafn etdiradi. Akbar podshohning o'zi Gulbadan begim tobutini o'g'il sifatida ko'tarib, dafn marosimida o'g'illik burchini e'timomiga yetkazadi⁷⁷.

Boburiylar sulolasi davrida muhim iz qoldirgan malikalardan yana biri Nurjahon begimdir.

Nurjahon begim Hindistonda hukmronlik qilgan Boburiy shahzodalardan uchinchisi — Jahongirshoh (Salim, 1569-1627)ning ikkinchi xotinidir.

Tarixiy manbalarning bergan ma'lumotiga ko'ra, Nurjahon begimning haqiqiy ismi Mehriniso bo'lib, asli kelib chiqishi Erondan edi. Uning ota-onasi

⁷⁶ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/allomalar/zahiriddin-muhammad-bobur-1483-1530>

⁷⁷ Сотимов Ф. Бобурийзодалар. — Т.: Маънавият, 2003. — Б. 23.

yo‘qchilik oqibatida o‘z vatanidan Hnndistonga ko‘chib kelib, Akbar podshoh saroyida xizmatga yollanadi⁷⁸.

Kunlardan bir kun shahzoda Salim (keyinchalik Jahongir podshoh) Mehrinisoni bozorda ko‘rib qoladi va unga oshufta bo‘lib, firoqida o‘rtanadi. Bu davrda Mehriniso balog‘at yoshiga yetgan, sarv qomat, o‘n to‘rt kunlik oydek qiz edi. Shahzoda Salim Mehriniso ishqida kuynb, halovatini yo‘qotadi. Nihoyat, unga uylanishga qaror qiladi. U o‘z qarorini otasi Akbarshohga (1542-1605) aytib, undan ijozat so‘raydi. Akbarshoh esa o‘z o‘g‘lipping bu qizga uylanishiga qat‘iyan qarshilik ko‘rsatadi. Akbarshoh o‘g‘lining ko‘nglini sovutmoq uchun Mehrinisoni saroy a‘yonlaridan biri — Ali Quli Istajliy (Sherafkan)ga turmushga chiqishga majbur qiladi. Sherafkan Mehrinisoga uylangach, uni qo‘shinlarga sardor etib Bengaliyaga ko‘chirib yuboradi.

1605- yilda Akbarshoh vafot etadi. Taxtga uning valiahd o‘g‘li shahzoda Salim o‘tiradi va o‘zini Jahongirshoh deb ataydi. Taqdir taqozosini qarangki, 1611- yilda Sherafkanxon Bengaliya hokimi Qutbiddinning qabuliga kirganida muhim masala ustida hokim bilan janjallashib qoladi va uni pichoqlab o‘ldiradi. Fojia ustiga yetib kelgan soqchilar Sherafkanxonni ham o‘ldiradilar. Shundan so‘ng beva qolgan Mehrinisoni Agraga — Jahongirshoh saroyiga jo‘natadilar. Shu voqeadan bir necha muddat o‘tgach, Jahongirshoh Mehrinisoni o‘z nikohiga oladi⁷⁹.

«Muntahab ut-tavorix» asarining muallifi Hakimxon to‘ra Mehrinisoning Jahongirshoh nikohiga kirishi haqida oldindan bashorat qilingan bir qiziq tush tafsilotini keltiradi. Go‘yo Mehriniso tunlarning birida tush ko‘radi. Tushida osmondan quyosh tushib kelib, ko‘rpasi ichiga kiradi. Shunda uyg‘onib ketadi va ko‘rgan tushini eri Sherafkanxonga so‘zlab, undan ta‘birinn so‘raydi. Sherafkanxon tush ta‘biri bo‘yicha bilimdon bo‘lgani tufayli, darhol xotining tushiga quyidagicha ta‘bir aytadi: «Sening to‘shagingga podshoh kirar ekan».

⁷⁸ Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. — Т.: Маънавият. 1999. — Б. 32.

⁷⁹ Сотимов Ғ. Бобурийзодалар. — Т.: Маънавият, 2003. — Б. 32.

Mehriniso o'z go'zalligi, ziyrakligi, farosatli va tadbirkorligi tufayli faqat Jahongirshohnigina emas, balki saroy ahlini ham o'ziga rom qiladi. Eidilikda uni Mehriniso emas, Nurmahal (saroyning nuri) deb ataydilar. Keyinchalik esa jahonning nurn, ya'ni Nurjahon deb ataydilar. Nurjahon begim nozik ta'b shoira ham edi. U Maxfiy taxallusi bilan g'azallar bitgan. Jahongirshoh saltanatida Nurjahonning otasi E'timod-ud Davla nomi bilan bosh vazirlik lavozimigacha ko'tarilgan. Uning o'g'li, ya'ni Nurjahon begimning akasi Osafxon esa saroy boshqaruvchisi mansabida qoyim bo'lgan⁸⁰.

Nurjahon begim Jahongirshoh saltanatida dono maslahatchi edi. Nurjahon begim mamlakatning ijtimoiy, madaniy hayotiga doir ko'pgina ezgu tadbirlarni bajargan. U ixtirochi ham edi, chunonchi, gulob va «atri Jahongiriy»ni kashf etgan. Shu bilan birga, bir necha xil xush ta'm, laziz taomlaru xona bezaklarini yaratdi. Saroy a'yonlari orasida uning hurmat e'tibori kun sayin oshib borardi. Tarixiy manbalarning bergan xabariga ko'ra, Jahongirshoh suyukli xotini Nurjahon begim sharafiga «Nuri Jahonin» deb atalgan 12 grammli oltin tanga zarb ettirgan.

«Muntaxab ut-tavorix» muallifi Nurjahon begimning shoh bilan qilgan mushoiralaridan (Jahongirshoh ham g'azallar bitgan) bir nechasini ko'rsatib o'tgan. Bu she'rlarni o'qigan kishn Nurjahon begim zamonasining iste'dodli shoirasi bo'lganligiga shubha qilmaydi⁸¹.

So'nggi vaqtlarda Jahongirshoh bot-bot kasal bo'lib, davlat ishlariga qaramay qo'yadi. Ana shunday paytlarda Nurjahon begim saltanat ishlarini boshqarib turadi. Nurjahon begimning saltanat ishlaridagi faoliyati va uning tutgan mavqei Jahongirshohning o'g'illariga, ayniqsa shahzoda Xurram (Shahobiddin Shoh Jahon)ga yoqmasdi.

Jahongirshoh salomatligi yomonlasha boshlagach, 1616- yilda shahzoda Parvez (Jahongirshohning ikkinchi o'g'li)ni taxtga valiahd etib tayinlaydi. Jahongirshohning to'rtinchi o'g'li shahzoda Shahriyor irodasiz va qatiyatsiz kishi

⁸⁰ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/temuriy-malikalar/nurjahon-begim>

⁸¹ Сотимов Ф. Бобурийзодалар. – Т.: Маънавият, 2003. – Б. 35.

edi. Nurjahon begim qo‘g‘irchoq sifat shahzoda Shahriyorni taxtga valiahd etish maqsadida o‘zining avalgi eri Sherafkandan bo‘lgan qizi — Lodila begimni shahzoda Shahriyorga nikohlab beradi. Jahongirshohning uchinchi o‘g‘li shahzoda Xurram (Shoh Jahon) 1612- yilda 21 yoshida Nurjahon begimning akasi Osafxonning 19 yoshli qizi Arjumand bonuga uylangan edi. Binobarin, Osafxonning maqsadi, o‘z kuyovini shahzoda Hurramni valiahdlikka tayinlatish edi⁸².

Shahzoda Xurram o‘z otasi Jahongirshohdan ham, valiahd akasi shahzoda Parvezdan ham, ukasi shahzoda Shahriyor va uning homiysi malika Nurjahon begimdan ham xafa edi. Otasidan so‘ng taxtga o‘tirishga harakat qilarkan, bu yo‘lda asosiy g‘ov deb Nurjahon begimni bilardi. 1622- yilda Nurjahon begimning otasi vazir E‘timod-ud Davlat vafot etgach, Nurjahon begim bilan shahzoda Xurram orasida ayovsiz ziddiyat kuchaydi. Bu davrda kasalmand Jahongirshoh saltanat ishlariga qaramay qo‘ygan, binobarin, davlatni boshqarish asosan Nurjahon begim qo‘lida qolgan edi⁸³.

Shahzoda Xurram o‘z kelajagi haqida taraddudlanib, 1622- yilda otasi Jahongirshoh tomonidan o‘z qaramog‘iga topshirilgan nogiron (ko‘r qilingan) akasi — shahzoda Xusravni pinhona bo‘g‘ib o‘ldirtiradi, otasi Jahongirshohga esa «sanchiq azobidan vafot etdi», deb xabar yuboradi. Shu zaylda saroy ichida guruhbozlik avj olib, kundan-kun saltanatdan putur keta boshlaydi. Ana shunday qulay vaziyatni ko‘pdan beri kutib turgan Eron hukmdori Shoh Abbos to‘satdan Qandahorni qamal qiladi va qirq kunlik qamaldan so‘ng shaharni qo‘lga kiritadi. Jahongirshoh shaharni qaytarib olish maqsadida shahzoda Xurram boshchiligida katta qo‘shin to‘plab, Qandahorga yubormoqchi bo‘ladi. Lekin shahzoda Xurram saroydagi notinch vaziyatda taxtdan uzoqlashishii istamay, Qandahorga borishdan voz kechadi va tez kunda otasi Jahongirshohga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi.

⁸² Файзиев Т. Захириддин Мухаммад Бобур ва унинг авлодлари. – Т.: Ёзувчи, 1996. – Б.24.

⁸³ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/temuriy-malikalar/nurjahon-begim>

Qo'zg'olon bostiriladi. Ammo saroydagi guruhbozlik, maxfiy fitnalar mamlakatning ichki va tashqi mavqeiga salbiy ta'sir ko'rsatadi⁸⁴.

Saltanatni vaqtincha Nurjahon begim boshqarardi. U o'z niyatlarini amalga oshirish maqsadida Jahongirshohga sodiq lashkarboshi Mahobatxonni saroydan chetlatib, Bengaliyaga jo'natadi va mol-mulkini ro'yxatga oldiradi. Bundan norozi bo'lgan Mahobatxon saltanatga qarshi bosh ko'taradi. Shu voqeadan sal vaqt o'tgach, Jahongirshoh Nurjahon begim bilan birga poytaxtdan Qobulga qarab safarga chiqadi. Mahobatxon rajputli qo'shini bilan yo'lga chiqib, Shoh qofilasini (karvon) o'rab oladi. Mahobatxonning barcha shartlari Jahongirshoh tarafidan nochor qabul qilinadi. Nurjahon begim Mahobatxonga qarshilik ko'rsatmoqchi bo'ladi, lekin kuchlar teng emasligiga ko'zi yetgach, makr-xiyla yo'lini qidiradi. Shoh karvoni Mahobatxon nazorati ostida Qobulga qarab yo'l oladi. Qobulga kirilgach, Nurjahon begim Jahongirshohni Mahobatxon soqchilari qo'lidan qutqarib oladi va Kobul qo'shinini Mahobatxonga qarshi qo'yadi. Endi Mahobatxon uchun kochishdan boshqa chora qolmaydi. U Qobuldan qochib Dekanga boradi va shahzoda Xurramga qo'shiladi.

Ammo bu vaqtda shahzoda Xurramning ahvoli og'irlashib, Eronga qochib o'tish fikrida yurardi. Biroq, 1626- yil oktabr oyida akasi valiahd shahzoda Parvezning to'satdan vafot etishi uning so'ngan umidlarini yana jonlantirib yuboradi. 1627- yili Jahongirshoh Kashmir bo'ylab sayohatga chiqadi. Sayohatdan qaytayotib, xastalanib yo'lda vafot etadi va Lohurda dafn etiladi. Bu xabarni eshitgan shahzoda Xurram taxtni egallash uchun Dekandan Agraga yo'l oladi.

Shahzoda Xurram Agraga yetib kelgunga qadar uning qaynotasi Osafxon muvaqqat ravishda marhum shahzoda Husravning o'g'li Dovar Baxshni taxtga o'tqazadi. Shahzoda Shahriyorni ushlatib, ko'ziga mil torttirib, ko'r qiladi. Kuyovi shahzoda Xurramning Agraga yaqinlashgani xabarini eshitgan Osafxon taxt sohibi qo'g'irchoq Dovar Baxshni turli-tuman vasvasalar bilan qo'rqitib, taxtdan voz

⁸⁴ Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Т.: Маънавият. 1999. – Б. 37.

kechishi va o'zini panaga olishini maslahat beradi. Dovar Baxsh taxtni tashlab qochadi va Eron shohi huzuriga panoh istab boradi.

Shahzoda Xurram 1628- yil fevral oyida Agraga kirib, aytarlik qarshiliksiz taxtga o'tiradi. U saltanatni o'z tasarrufiga kiritgach, o'zini «Shoh Jahon» nomi bilan atashnn buyuradi. Niyatlariga yeta olmagan malika Nurjahon begim 1645- yilda vafot etadi va qabri Lohurning Shoh Dara qabristoniga qo'yiladi⁸⁵.

Boburiylar saltanatida, jumladan hukmdor Shohi Jahon davrida mamlakat hayotida muhim o'rin tutgan ayollardan biri Arjumand bonu (Mumtoz Mahal) edi.

Arjumand bonu taxminan 1594- yilda Mashhadda tug'ilgan. U asli eronlik bo'lib, bobosi va ota-onasi kambag'allik yuzasidan Hindistonga ko'chib kelib, Akbarshoh mulozimatiga xizmatga kiradi. 1611- yilda Arjumand bonuning ammasi Nurjahon (Mehriniso) Jahongirshohga turmushga chiqqach, Arjumand bonuning bobosi E'timod-ud Davla bosh vazirlik mansabiga, yutasi E'tiqodxon (Osafxon) esa saroy boshqaruvchisi lavozimiga ko'tariladi. 1613- yili 19 yoshli Arjumand bonu 21 yoshli shahzoda Xurramga (Shoh Jahon) turmushga chiqadi. O'tkir aql-idrok va did-farosat sohibasi bo'lgan Arjumand bonu tez kunda tadbirkorligi, nozik tabiati, iffati va tengsiz husn-latofati bilan saroy a'yonlari o'rtasida katta e'tibor qozonadi. Xususan, Jahongirshoh Arjumand bonuni nihoyatda e'zozlard. Chunki Jahongirshoh bilan shahzoda Xurram oralarida vujudga kelgan ayrim kelishmovchiliklarni Arjumand bonu hal qilishga kirishar va bu ishning uddasidan chiqardi. Tabiiyki, bunday ezgu xizmatlari evaziga har ikki tomonning iltifotiga sazovor bo'ladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ko'p o'tmay saroyda Arjumand bonu - Mumtoz Mahal begim (saroyning ko'rki) deya atala boshlandi. Arjumand bonuga berilgan ushbu nom unga shon-shuhrat keltirib jahonga mashhur qildi va nomi tarix sahifalariga ko'chdi.

1628- yil fevralida eri Shoh Jahon taxtga o'tirgach, yosh malika Mumtoz Mahal begim saltanat ishlarida unga yordamlashib, rejalik maslahatlari bilan

⁸⁵ Нуриддинов М. Бобурийлар сулоласи. –Т.: Фан, 1994. – Б. 24.

hukmdorni to'g'ri yo'lga boshladi. Saroyda u maslahatchi va muhrdorlik lavozimida edi⁸⁶.

Mumtoz Mahal begim yaxshi kunlarda ham, og'ir damlarda ham, harbiy safarlarda ham eriga vafodor yor, sodiq hamroh va jafokash hamdard bo'ldi. U qisqa umri davomida 14 nafar farzand ko'rdi. «Tazkirat ul-xavotin» asarida yozilishicha, Mumtoz Mahal begimning dunyoda qoldirgan farzandlari sakkiz nafar - to'rt qiz, to'rt o'g'il bo'lib, qolgan olti nafari yoshligida nobud bo'lgan. Uning o'g'illari Doro Shukuh (1616-1659), Shoh Shujo' (1617-1661), Avrangzeb (1618-1707), Murod Baxsh (1621 - 1658), qizlari - Jahon Oro begim, Anjuman Oro begim, Dahr Oro begim va Kiti Oro begimdir.

Malika Mumtoz Mahal begim Shoh Jahon hukmronligining to'rtinchi yili, ya'ni 1631- yil 17- iyun chorshanba kuni navbatdagi safar chog'ida, Burhonpurda 14- farzandini tug'ish paytida 38 yoshida vafot etdi. Mumtoz Mahal begim hayot bilan vidolasharkan, eri Shoh Jahondan farzandlariga mehribon bo'lishni, bundan buyon boshqa uylanmaslikni va nihoyat, unga atab, dunyoda tengi yo'q ulug'vor, hashamatli maqbara bunyod ettirishni iltimos qildi.

Mumtoz Mahal begim o'lim oldidan o'z bolalari bilan vidolasharkan, Shoh Jahonning ahvolidan xabardor bo'lib, unga g'amxo'rlik qilib turishni o'zining katta qizi - Jahon Oro begim zimmasiga yuklaydi⁸⁷.

Shoh Jahon sevikli rafiqasi Mumtoz Mahal begimning vasiyatlariga to'la amal qiladi. Zotan, u keyingi 36 yillik umri davomida uylanmay o'tadi. Munis va vafodor rafiqasining nomini abadiylashtirish maqsadida, unga atab yaltiroq oq marmardan hashamatli maqbara qurdiradi. Agra shahridagi ulkan maqbaraning qurilishiga yigirma ming mutaxassis usta va ishchilar jalb qilinib, 18 yilda qurib bitkazildi. Bu ulug'vor obida - «sevgi va vafo» qasrining qurilishiga 40 million rupiya mablag' sarflangan.

⁸⁶ Сотимов F. Бобурийзодалар. – Т.: Маънавият, 2003. – Б. 37.

⁸⁷ Файзиев Т. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг авлодлари. – Т.: Ёзувчи, 1996. – Б.27.

Maqbara qurib bitkazilgach, marhuma Mumtoz Mahal begimning xokini ko'chirib keltirib dafn etishdi. Ushbu ulug'vor hashamatli maqbarani Mumtoz Mahal begim boshiga kiydirilgan toj ramzida «Toj Mahal» deb atadilar.

Boburiylar davlati tarixida muhim iz qoldirgan ayollardan biri Jahon Oro begim hisoblanadi.

Jahon Oro begim Shoh Jahonning katta qizi. U 1614- yilda tug'ilgan. Shoh Jahonning taxtga o'tirish marosimida Jahon Oro begim 10 yoshda edi. Otasi unga 40 mnng dona yoqut javohir in'om etib, yana yiliga 600 ming rupiya miqdorida nafaqa belgilagan edi.

Onasi Mumtoz Mahal begim vafot etgan chog'da Jahon Oro begim o'n yetti yoshda edi. Binobarin, onasining vasiyatiga ko'ra, shoh oilasini boshqarish uning zimmasiga tushdi. Jahon Oro begimning jismi ismiga monand bo'lib, husn-latofatda, aql-idrokda va ilmu odobda tabiat unga saxiylik qilgan edi. Boz ustiga, yaxshigina g'azallar bitardi.

Shoh Jahon bu qiziga alohida mehr ila qarardi. U Mumtoz begimdan qolgan barcha boylik va mulklarni shu qiziga topshiradi⁸⁸.

Oqila Jahon Oro begim oilada aka-ukalar o'rtasidagi kelishmovchilik, hatto otasi bilan ukasi Avrangzeb oralarida kelib chiqadigan mojarolarni ustalik bilan bartaraf qilishga mohir edi. Uning saroyda obro'-e'tibori orta borib, asta-sekin onasi Mumtoz Mahal begimning mavqeini egallay boshladi. Zotan, Jahon Oro begim saltanat ishlarini boshqarish, ichki va tashqi siyosat, diplomatiya masalalarida otasiga foydali maslahatlari bilan yordamlashar edi. Unda bobokaloni Boburshohga o'xshash me'morchilik va obodonchilik ishlariga qiziqish va havas katta edi. Binobarin, Agrada qurilgan jome' masjidining tarxi (loyiha) Jahon Oro begimning qalamiga mansubdir. U Dehli, Surat, Ambola, Behal va Panipat shaharlarida karvonsaroylar qurdirdi, Lohurda esa orombaxsh katta bog' bunyod ettirdi. Jahon oro begim mamlakatdagi g'arib-g'urabo va faqirlarga moddiy yordam uyushtirib, kambag'allar uchun uy-joylar qurdirdi. Shuningdek, Kashmirda

⁸⁸ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/temuriy-malikalar/jahon-oro-begim>

«Pari Mahal» (Parilar saroyi) nomli ajoyib bog‘ barpo qildi, Shahdixonobodda Alimarlonxon arig‘ini qazdirib, naqshkor hovuz qurdirdi. Jahon Oro begimning ilm-fan bobida ham qalam tebratgani tarixdan ma’lum. Chunonchi «Risolayi sohibiya» (Do‘stlik haqida risola) asari mavjud⁸⁹.

1658- yili taxt talashgan Avrangzeb Olamgir o‘z akasi Doro Shukuhni mag‘lubiyatga uchratib, ukasi Murod Baxshni zindonga tashlaydi. Bemor, xasta otasi Shoh Jahonni hibsga olib, Agradagi «Qizil qal’a» nomli saroyda nazoratda saqlaydi. Ukasi Avrangzebning xatti-harakatlaridan norozi bo‘lgan Jahon Oro begim mamlakatni aka-ukalar o‘rtasida taqsimlashni, jumladan Doro Shukuhga — Panjobni, Murod Baxshga — Gujaratni, Shoh Shujo‘ga — Bangolni, Avrangzebning katta o‘g‘li Muhammad Sultonga — Dekanni bo‘lib berishni maslahat beradi. Ammo, Avrangzeb bu taklifni qabul qilmaydi.

Ota-bola, aka-ukalar va do‘stlar orasiga tushgan nizo va ularning fojiali qismati Jahon Oro begimni qattiq iztirobga soladi. Dilxasta malika dunyo ishlaridan qo‘l yuvib, mahbuslikda kun kechirayotgan xasta otasiga xizmat qilish bilan o‘ziga taskin beradi. U 1658- yildan to 1666- yilgacha «Qizil qal’a qasrida mahbuslikda yotgan otasi Shoh Jahonning xizmatida bo‘ladi. 1666- yilda Shoh Jahon mahbuslikda, g‘aribona ayanchli ahvolda, o‘z sevikli yori Mumtoz Mahal uchun qurdirgan Toj Mahal maqbarasidan ko‘z uzolmay, qizi Jahon Oro begim qo‘lida hayotdan ko‘z yumdi⁹⁰.

Jahon Oro begim garchi shoh qizi bo‘lsa-da, tabiatan kamtar va oliy himmatliligi tufayli boylik hamda shon-shuhratlarga qiziqmagan. U 1681- yilda oltmish yetti yoshida vafot etdi. Uni Dehliidagi Zarzari Baxsh qabristoniga dafn etadilar.

Boburiylar saltanati madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan malikalardan biri Zebunniso begim hisoblanadi.

⁸⁹ Сотимов Ф. Бобурийзодалар. — Т.: Маънавият, 2003. — Б. 38.

⁹⁰ Нуриддинов М. Бобурийлар сулоласи. —Т.: Фан, 1994. — Б. 32.

Zebunniso begim Zahiriddin Muhammad Bobur podshohning pannevarasi Abu Zafar Muhiyiddin Muhammad Avrangzeb Olamgirning qizidir. Uning onasi Dilrasbonu Shohnavozxonning qizi bo'lib, Boburning Gulbadan begim ismli qiziga borib tutashadi. Zebunniso begim (1048- hijriy yil shavvol oyi) 1639- yil milodiy, fevral oyida Dehlida tug'ilgan⁹¹.

Uning otasi Avrangzeb (1618-1707) yoshligidanoq dindorligi bilan nom chiqargan edi. U riyokorlik bilan «umrimni ibodatda o'tkazmoq uchun Makkaga borib, bu dunyo ishlaridan qo'l yuvaman», deb yurar va oddiy xalqqa o'zini avliyo qilib ko'rsatardi. U otasi Shoh Jahon (shahzoda Xurram) qo'l ostidagi Dekan viloyatining hokimi edi. Ammo Shoh Jahonga qarshi bir necha marta isyonlar ko'taradi. Nihoyat, 1657- yilda, otasi Shoh Jahonning kasalligidan foydalanib, katta akasi Doro Shukuhni hokimiyatdan azl qilmoq uchun kichik akasi Shoh Shujo' va ukasi Murod Baxshlar bilan ittifoq tuzadi. 1658- yilda akasi Doro Shukuhni asirga olgach, otasi Shoh Jahonni ham taxtdan tushirib, qasrda mahbuslikda saqlaydi. Ko'p o'tmay ukasi Murod Baxshni ham ushlab zindonga tashlaydi va o'sha yerda bo'g'ib o'ldirtiradi. Kichik akasi Shoh Shujo' darbadarlikda Birma tuprog'iga o'tib, o'sha yerda butun oila a'zolari bilan birga qaroqchilar qo'lida o'lib ketadi. Katta akasi Doro Shukuhni dinsizlikda ayblab, zindondan olib chiqadi va shahar maydonida boshini kestiradi. O'sha kuniyoq Doro Shukuhning kesilgan boshini laganga solib mahbuslikda yotgan kasal otasi Shoh Jaxon oldiga kiritadi. Shoh Jahon esa mahbuslikda sakkiz yil yig'lab-yig'lab ko'zi ko'r bo'lib, olamdan o'tadi.

Avrangzeb Qur'onni yod bilar, talaygina she'rlarni yoddan o'qir, o'zi ham she'r yozardi. Ammo qattiqqo'l, birovning haqidan xazar qilmaydigan, qon to'kishni oddiy bir zarurat deb biluvchi toshbag'ir bir kishi edi. U qirq to'qqiz yil hukmronlik qilib, 1707- yilda 89 yoshida Ahmadobod shahrida vafot etadi.

⁹¹ Файзиев Т. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг авлодлари. – Т.: Ёзувчи, 1996. – Б.28.

Avrangzeb ko‘p yillik hukmronlik davrida ota-bobolariga o‘xshab me‘morlik, adabiyot va san‘atning rivoji uchun qayg‘urmadi⁹².

«Tazkirat ul-havotun»da aytilishicha, Avrangzebning besh o‘g‘li va besh qizi bo‘lgan. O‘g‘illari: Muhammad Sulton, Muazzam Shoh (keyinchalik Bahodir Shoh), A‘zam Shoh, Muhammad, Amin Kom Baxsh; qizlari — Badriniso begim, Zebunniso begim, Ziynatniso begim, Zubdatniso begim va Mehriniso begimlardir.

Zebuniiso begim o‘z zamonasining fozila ayollaridan Hafiza Maryam Bonu qo‘lida savod chiqargan. Otasi Zebunnisoning shoirlik iste‘dodini payqab, unga o‘z davrining yetuk olimlaridan Mullo Muhammad Ashraf Isfahoniy va Mullo Jovonni muallim qilib tayinlaydi. Zebunniso begim zabardast shoira, yetuk olima, usta tanbur chertuvchi sozanda va mohir xattot bo‘lib yetishadi. Arab-fors tillarining sarfu nahv (morfologiya va sintaksis)ini, fiqh (qonunshunoslik), mantiq, falsafa, tarix fanlarini puxta o‘zlashtiradi. u nasta‘liq, nash va shikasta xatlarini zo‘r mahorag ila bitgan. Qur‘onni bir necha marotaba husnixatda ko‘chirgan va yoddan qiroat bilan o‘qigan. Zebunniso begim arab va fors tillari sarfu nahvini egallab, shu tillarda ham ijod qildi.

Zebunniso begim olamlarga, shoirlarga va san‘at ahllariga homiylik ko‘rsatib, ularga maosh to‘lab turgan. «Olami Islom» tazkirasidagi «Zebunniso begim otasi hukmdorlik bilan qozonolmagan shuhratni ilm ka odob bilan qozongan» jummalari fikrimizni tasdiqlaydi⁹³.

Zebunniso begim bir qator shogirdpeshalarni ilm-ma‘rifat, odob va g‘azaliyot bobida tarbiyalab, kamolotga yetkazgan, Sharqning mashhur shoiri Mirzo Abduqodir Bedil o‘z qizini Zebunniso begim tarbiyasiga topshirgan. Natijada u shoiralik darajasigacha yetishgan.

1922 yilda chop etilgan «Kobul» jurnalining 10-sonida Zebunniso begim haqida shunday ma‘lumot uchraydi: «Zebunniso begimning chiroyli bir devoni bo‘lgan. Yana tasavvuf falsafasiga oid «Munis ul-arvoh» asari ham bor. Tafsir

⁹² Сотимов F. Бобурийзодалар. – Т.: Маънавият, 2003. – Б. 54.

⁹³ Нуриддинов М. Бобурийлар сулоласи. –Т.: Фан, 1994. – Б. 33.

sohasida 769 varaqli «Zeb at-tafsir» («Go‘zal tafsirlar»)ni yozdi. Bundan tashqari ilohiyotga doir «Zeb an-nashaot» nomli asar yozib, uni ustози xotirasiga bag‘ishladi. Hindiston musulmonlari orasida dasturulamal bo‘lib qolgan «Fatavoyi olamgiriyy» («Shariat qonunlari majmuasi») asarini fors tiliga tarjima ham qildirdi». Ko‘rinib turibdiki, Zebunniso begim o‘z zamonasining oqila va zukko qizi, o‘sha muhitning barkamol ziyolisi edi.

U otasi shoh Avraigzeb Olamgirning yaqin maslahatchisi edi. Lekin Zebunniso begim maslahatlarining hammasi ham shohga ma‘qul bo‘lavermagan. Ayniqsa, adolat va ma‘rifat bo‘yicha bergai maslahatlari, erkin fikrlari shohga yoqmagan.

Zukko olima, hassos shoira bo‘lmish go‘zallar go‘zali Zebunniso begimga umr yo‘ldoshi bo‘lishni istagan kishilarning son-sanog‘i bo‘lmagan. Biroq, Zebunniso begim ularning hech birini o‘ziga munosib topmagan. Zero, Zebunniso begimga ilhaq bo‘lganlarning aksari shahzodalar, amirzodalar, bekdodalar va yirik mulkdorlar edi. O‘z zamonasining shoirlaridan ham Zebunniso begimga yostiqdosh bo‘lishga orzumandlar ko‘p bo‘lgan⁹⁴.

Ko‘pgina tarixiy asarlarning guvohlik berishicha, Zebunniso begim yoshligida Oqilxon Roziy ismli shoirtabiat bir yigitga ko‘ngil qo‘yadi. Oqilxon Roziy ham Zebunniso begimga ishqiy misralar yo‘llab turgan. Shoh Avrangzeb oshiq-ma‘shuqning maxfiy uchrashuvlaridan xabar topgach, ularni ta‘qib ostiga oladi. Rivoyatlardan birida aytilishicha, kunlardan bir kun Zebunniso begim bilan Oqilxon Roziy bog‘da uchrashib turganlarida boqqa shoh Avrangzeb kirib keladi. Darhol oshiq-ma‘shuqlar o‘zlarini panaga oladilar. Oqilxon shohning g‘azabidan cho‘chib, berkinish uchun biror panaroq joy izlaydi. Ittifoqo, bog‘ning bir chetidagi katta ziyofatlar uchun qazilgan yerda o‘choqqa o‘rnatilgan katta dosh qozon mis qopqog‘i bilan turardi. Oqilxon ana shu qozon ichiga tushib olib, ustidan qopqog‘ini yopib oladi. Albatta, uning bu shoshilinch harakati shoh Avrangzebning nazaridan chetda qolmaydi. Shoh Avrangzeb qizi Zebunniso

⁹⁴ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/temuriy-malikalar/zebunniso-begim>

begimga bog‘dan chiqib ketish haqida amr qilgach, to‘g‘ri yurib kelib, dosh qozon qopqog‘i ustiga chiqadi va bakovulni chaqirib, o‘choqqa olov yoqishni buyuradi. O‘choqqa olov yoqilgach, qozon qiziydi. Qopqoq ostidan jizg‘anak hid bilan tutun chiqadi-yu, ammo hech qanday nido eshitilmaydi. Avrangzeb qopqoqdan tushib, bakovulga qozon qopqog‘ini ochishni buyuradi. Qopqoq ochilganda qozon ichida yarim qoraygan Oqilxonning jasadi ko‘rinadi...⁹⁵

Bengal klassik adabiyotining bilimdoni va hozirgi zamon bengal adabiy tilinn yaratuvchilaridan biri Bonkimchondor Chottopaddxayning (1838-1894) «Radj Singx» nomli tarixiy romanida Zebunniso begimning sevgan mahbubi Oqilxon Roziy — Muborak Ali nomi bilan talqin qilinadi. Muallifning hikoya qilishicha, Muborak Alining Zebunniso begimni yaxshi ko‘rishi va usiz yashay olmasligini o‘z og‘zidan eshitgan shoh Avrangzeb Muborak Alini ushlatib, maxsus jazoga mustahiq qiladi. Muborak Ali oldiga ko‘z oynakli ilon (kobra) solingan ikkita temir qafasni keltirib qo‘yadilar. Muborak Ali bu jazoning tartiblarini avvaldan bilardi. Chunonchi, bu dahshatli jazodan qutulishning chorasi yo‘qligiga ishonchi komil bo‘lgani tufayli, o‘limni bo‘yniga olib, darhol etikni yechib, oyog‘ini qafasga yaqinlashtiradi. G‘azablangan ilon yashin tezligida oyoqni tishlaydi. Muborak Ali dahshatli og‘riqdan ingrab, jallodga boqadi. Jallod ilon zahrining zo‘rligidan yuzlari ko‘kara boshlagan Muborak Aliga qarab, ikkinchi qafasga ishora qiladi. Qoidaga muvofiq, birinchi qafasdagi ilon chaqqan oyoqni ikkinchi qafasdagi ilonga xam chaqdirish lozim edi. Bundan maqsad, birinchi qafasdagi ilon yaxshi chaqa olmagan bo‘lsa yoki yetarli darajada zahari bo‘lmagan bo‘lsa, ikkinchi qafasdagi ilon me‘yoriga yetkazardi. Binobarin, Muborak Ali yaralangan oyog‘ini ikkinchi qafasga tegizadi. Shu lahzada ilon chaqib, hushdan ketadi va olamdan o‘tadi⁹⁶.

⁹⁵ Сотимов F. Бобурийзодалар. — Т.: Маънавият, 2003. — Б. 56.

⁹⁶ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/temuriy-malikalar/zebunniso-begim>

Yuqoridagi rivoyatlardai ko‘rinib turibdiki, Zebunniso begimning har holda sevgan kishisi bo‘lgan. Ammo shoh Avrangzeb bu yigitni o‘ziga kuyov qilishdan or qilib, uning bo‘yniga tuhmat toshini osib, qatl qildirgan.

Oqilxonning o‘limidan so‘ng, Zebunniso begim qalbida yangi yor uchun o‘rin qolmaydi. U poyoniga yetmagan ishqny dostonini kuylab o‘tadi.

«Olami Islom»da yozilishicha, eron shahzodalaridan biri Zebunniso begimning husn-latofatda tanholigini eshitib, uni g‘oyibona sevib qoladi. Uning firoqida kuyib, oshiqona g‘azallar yozib, ulardan bir misrani Zebunniso begimga yuboradi.

Turo, ey gulbadan, beparda didan orzudoram,

Latofathoyi husnatro rasidan orzudoram.

Mazmuni: Ey gulbadan, seni pardasiz ko‘rish, husnu latofatlaringga yetishish orzusidaman.

Bunga Zebunniso begim quyidagi javobni yozadi:

Bulbul az gul biguzarad gar dar chaman binad maro,

Vutparasti kay kunad gar baraxman binad maro?

Dar suxan pinhon shudam monandi bo‘ dar bargi gul,

Mayli didan harki dorad, dar suxan binad maro.

Mazmuni: Agar bulbul meni chamanda ko‘rsa, gul bahridan kechardi, agar barahman meni ko‘rib qolsa, butga sajda qilmasdi. Gul o‘z hidini yaproqlariga yashirganday, men ham so‘zda yashiringanman, kimning xohishi meii ko‘rmoq bo‘lsa, meni so‘zda ko‘rsin.

Bu bayt Zebunniso begimning Eron shahzodasiga mohirona bergan javobi edi⁹⁷.

«Hunar va mardum» (Eron) oynomasida hikoya qilinishicha, Avrangzeb Olamgirning yetti vaziri bo‘lib, shulardan biri Oqilxon Roziy edi. U yosh, sho‘x, yetuk suxandon, shoir tabiatli yigit bo‘lgan. Taqdir taqozosi bilan Zebunniso begim Oqilxon Roziyni yoqtirib qoladi. Nihoyat, har ikki dildor bir-birlari bilan

⁹⁷ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/temuriy-malikalar/zebunniso-begim>

maxfiy ravishda uchrashib, ahdu paymon qiladilar. Ammo shoh Avrangzeb qizi Zebunniso begimni uncha-muncha odamga ravo ko'rmay, shahzodalaru, aslzodalardan kuyov qilishni niyat qilardi. Zebunniso begim bilan Oqilxon Roziy ko'pincha bir-birlariga mushoira tarzida she'r yozishib, so'zlashardilar. Ularning bir-birlariga ko'ngil qo'yganlari va maxfiy uchrashuvlari hasadchi va ig'vogarlar nazaridan chetda qolmadi. Ular bu voqeani shoh Avrangzebga yetkazadilar. Shoh Avrangzeb avvaliga qattiq g'azablanadi va Oqilxonga nisbatan jazo chorasini qo'llashni o'ylaydi. Biroq, xabarchilar keltirgan mish-mishdan boshqa qo'lda amaliy dalil-isbot yo'qligi tufayli, jazoni bir oz kechiktirishga qaror qiladi⁹⁸.

Zero, bu sohada iyuh Avrangzeb uzoqni o'ylab ish tutadi. Chunki Oqilxonga beriladigan jazoning bir uchida o'zining suyuqli qizi Zebunniso turardi. Shuning uchun jazo berishda shoshilmasdan, avval ularning xatti-harakatlarini tekshirib ko'rishga jazo qiladi hamda vazirlariga quyidagicha ko'rsatma beradi: har bir vazir bir kecha-kunduz, ya'ni 24 soat davomida saroyda bo'lishi kerak. Haftaning yetti kunini yetti vaziriga taqsimlaydi. Ushbu taqsimotda Oqilxonga ham bir kechayu kunduz saroyda saltanat ishlari bilan shug'ullanishga farmon beradi. O'z-o'zidan ma'lumki, Oqilxon navbatchilik qiladigan tunda Zebunniso begim bilan Oqilxonning diydor ko'rishmaklariga imkon tug'ilardi. Ammo, shoh Avrangzeb o'zining voqeanavislarini (josus) yig'ib, shu bir hafta davomida kechasi-yu kunduzi Oqilxon Rozinnppg xatti-harakatidan voqif bo'lishni hamda kim bilan nima haqda so'zlashganini nazardai qochirmaslikni tayinlaydi⁹⁹.

Oqilxon Roziy fahm-farosatli, har ishning oqibatini o'ylaydigan aqlli yigit edi. U navbatchilik shohga nima uchun zarur bo'lib qolgani sababini farosat yuzasidan o'ylab topadi. Ishning oqibati yaxshi bo'lmasligiga ko'zi yetgan Oqilxon o'zini kasallikka solib, o'sha kun va tun o'z manzilidan tashqariga chiqmaydi. Zebunniso begim esa Oqilxon Roziyning navbatchilik kechasini zo'r

⁹⁸ Файзиев Т. Захириддин Мухаммад Бобур ва унинг авлодлари. – Т.: Ёзувчи, 1996. – Б.32.

⁹⁹ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/temuriy-malikalar/zebunniso-begim>

ishtiyoq va sabrsizlik bilan kutadi. Zero, o'sha kecha mahbubining visolini ko'rishga musharraf bo'lishdan umidvor edi...¹⁰⁰

Zebunniso begimning hayot yo'li afsonaviy voqealarga boy. Uning nasli ota tarafidan ham, ona tarafidan ham Bobur podshohga borib tutashadi. Demak, shoh qizi, boz ustiga aql va idrokda tengsiz, yuksak she'riy iste'dod sohibasi, nazm mulkining malikasi, malikalar ichra go'zali... Zebunniso begim husnu latofat va malohatda benazir, fazilatda beqiyos bo'lsa-da, o'zining 63 yillik umri davomida o'ziga munosib, hamdard yor topa olmadi. U 1702- yilda 63 yoshida Dehlida vafot etdi. Uni Dehlidagi «Zarzariy» qabristoniga dafn qilishgan.

¹⁰⁰ Сотимов Ф. Бобурийзодалар. – Т.: Маънавият, 2003. – Б. 64.

XULOSA

Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan temuriylar va boburiylar sulolasi qariyb 500 yil (1370-1858) davomida jahon tarixining ajralmas qismi sifatida mavjud bo'ldi. Mazkur davlatning ko'plab hukmdorlari o'z davrining madaniy hayotida muhim o'rin tutdilar. Mazkur davlatlar boshqaruv tizimi va ijtimoiy hayotida malika ayollarning tutgan o'rnini tahlil qilish natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, o'rganilgan davrda ayollarning jamiyatda tutgan o'rni beqiyos bo'lgan.

Amir Temur saltanatida Bibixonim (Saroymulkxonim)ning tutgan o'rni xususida Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixo o'z esdaliklarida ma'lumot qoldirgan. Shuningdek, mahalliy tarixchilarning asarlarida ham qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Ayni paytda Bibixonim nomi bilan bog'liq Samarqanddagi tarixiy obidalar, xalq orasida saqlanib qolgan rivoyatlar uning mamlakat tarixida naqadar katta o'ringa ega bo'lganligini ko'rsatadi. Temuriylar sulolasining eng yorqin vakili Muhammad Tarag'ay Ulug'bekni tarbiyalagan inson ham Bibixonim edi.

Temuriylar davlatining poytaxt shaharlaridan biri Hirotida Shohruh mirzo hukmronligi davrida Gavharshod begim, Sulton Husayn Boyqaro saroyida Xadicha begim davlat siyosatini yuritishda muhim iz qoldirganlar. Ularning davlat ishlariga aralashuvi hatto shahzodalarni taxtga o'tqazish ishlariga ham ta'sir o'tkazganlar.

Zahiriddin Muhammad Bobur temuriylar sulolasining yorqin vakili bo'lish bilan bir qatorda jahon tarixida muhim o'rin tutgan boburiylar sulolasining asoschisi hamdir. Bobur va boburiylar sulolasi davrida Xonzoda begim, Gulbadanbegim, Nurjahon begim, Arjumand bonu (Mumtoz Mahal), Zebuniso begim kabi ayollar mazkur davlat tarixini bezab turibdilar. Buning asosiy sababi va mohiyati bu davlatning hukmdorlari ma'rifatga homiylik qilish bilan birga, ularning aksariyati ijodkor edilar.

Gulbadanbegim "Humoyunnoma" asarini yozish bilan boburiylar sulolasi tarixnavisligida katta iz qoldirgan bo'lsa, mazkur sulola vakilasi bo'lgan

Zebunniso begim o`z ijodi bilan XVIII asr adabiyoti va she`riyatida o`ziga xos o`rin qoldirdi.

Tarixdan xulosa qilib shuni qayd qilish lozimki, temuriylar va boburiylardan avvalgi va undan keyingi sulolalar davrida malika ayollar bu darajada mamlakat hayotida muhim o`ringa ega bo`lgan emaslar. Buning asosiy sababi temuriylar va boburiylar davlatlarida fan va madaniyatning yuksalganligi, o`z navbatida ayollarning ham jamiyat hayotida mavqeining ortishiga olib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Bitiruv malakaviy ishi uchun nazariy asos bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.1. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабрь.
- 1.2. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қайтий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг қуналик қондаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
- 1.3. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
- 1.4. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. – 10 январь.
- 1.5. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик – халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир / Маърифат. – 2017. – 25 январь.
- 1.6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018.
- 1.7. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
- 1.8. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент, 1998.
- 1.9. Каримов И. А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
- 1.10. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.

II. Adabiyotlar

- 2.1. “Амир Темур ва унинг жаҳон тарихида тутган ўрни” мавзусидаги халқаро конференция тезислари. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
- 2.2. Амир Темур жаҳон тарихида. – Т.: Шарқ, 1996.
- 2.3. Амир Темур Кўрагон. Зафар йўли / Нашрга тайёрловчи, таржимон ва изоҳлар муаллифи Ашраф Аҳмад. - Т.: Шоёб, 1992.
- 2.4. Амир Темур Кўрагон. Зафар йўли / Нашрга тайёрловчи, таржимон ва изоҳлар муаллифи Ашраф Аҳмад. - Т.: Шоёб, 1992.
- 2.5. Аҳмедов Б. Соҳибқирон Темур (ҳаёти ва ижтимоий-сиёсий фаолияти). – Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1996.

- 2.6. Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Т.: Маънавият. 1999. – Б. 17.
- 2.7. Ғойибов Н. Амир Темур даври маънавияти. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.
- 2.8. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.– Т.: Юлдузча, 1989. – Б. 152.
- 2.9. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Маънавият, 2016. – Б. 45.
- 2.10. Қажумов А. Амир Темур қиссалари. – Т.: Ёзувчи, 1996.
- 2.11. Маҳмуд Л. Бобурни тушуниш бахти. – Т.: Фан ва технология, 2009. – Б. 56.
- 2.12. Норкулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Урганч: Хоразм нашриёти, 1996.
- 2.13. Нуриддинов М. Бобурийлар сулоласи. –Т.: Фан, 1994. – Б. 12.
- 2.14. Сотимов Ғ. Бобурийзодалар. – Т.: Маънавият, 2003. – Б. 14.
- 2.15. Файзиев Т. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг авлодлари. – Т.: Ёзувчи, 1996. – Б.6.
- 2.16. Файзиев Т. Темурий маликалар. - Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1994.

III. Internet ma'lumotlari:

- 3.1. <http://betakrorbuxoro.uz/uz/2017/05/04/sulton-husajn-bojqaroning-suyukli-xotini-xadicha-begim-ishlatgan-makr>
- 3.2. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/allomalar/zahiriddin-muhammad-bobur-1483-1530>
- 3.3. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/amir-temur-buyuk-davlat-arbobi-va-sarkarda>
- 3.4. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/sarkarda/temur>
- 3.5. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/temuriy-malikalar/gavhar-shod-begim>

3.6. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/temuriy-malikalar/saroy-mulk-xonim-bibixonim>

3.7. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/temuriy-malikalar/shodmulk-xotun>

3.8. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/temuriy-malikalar/xadicha-begim>

a. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/temuriy-malikalar/zebunniso-begim>